

ОБРАЗОВАНИЕ,

**НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ
В МИРЕ**

международный научный электронный журнал

*Выпуск журнала № 58
Часть-2_Декабрь -2024*

OPEN  ACCESS



ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ

международный научный электронный журнал

Декабрь - 2024 год

ЧАСТЬ - 2



Google
Scholar

IC²I JOURNALS
MASTER LIST

BOSHLANG'ICH SINFLARDA PAST O'ZLASHTIRUVCHI BOLALARDA INGLIZ TILI FANINI O'RGATISH METODIKALARI

Quronboyeva Gulchiroy Umirbek qizi

Samarqand davlat chet tillar instituti

Narpay Xorijiy tili va adabiyoti (ingliz tili)

yo 'nalishi xorijiy tillar fakulteti 2-bosqich talabasi

gulchiroyquranboyeva@gmail.com

93 776 08 04

Ilmiy rahbar: Zoirova Dिल्фуза Xayriddinovna

Samarqand davlat chet tillar instituti

Narpay xorijiy tillar fakulteti o'qituvchisi

Annotatsiya: Maktablarda doimo darsda faol qatnashmaydigan, o'zlashtirishi past o'quvchilar bilan ishlash doimo dolzarb vazifa bo'lib kelgan. Bu maqolada boshlang'ich sinflarda past o'zlashtiruvchi bolalarda ingliz tili fanini o'rgatish metodikasi haqida ma'lumot beriladi.

Kalit so'zlar: zamonaviy, innovatsiya, bo'sh o'zlashtiruvchi, o'yin, ta'limiy, innovatsion ta'lim.

METHODS OF TEACHING ENGLISH LANGUAGE TO CHILDREN WITH LOW ASSESSMENT IN PRIMARY GRADES

Abstract: In schools, working with pupils who do not actively participate in lessons and have low learning has always been an urgent task. This article provides information on the methodology of teaching English language to children with low learning ability in primary grades.

Key words: modern, innovation, free mastering, game, educational, innovative education.

Bugungi kunda dunyo aholisining qariyb 60 foizi ikki yoki undan ortiq tillarda so'zlasha olishi barchaga ma'lum.

Chet til ta'limida sifat va samaradorlikni ta'minlash maqsadida chet tillarni o'rganish/o'rgatish yoshini qisqartirish tajribasi ommalashib bormoqda. Bunga «the younger the better / early is better» mazmunidagi tushunchaning keng tarqalganligi sabab bo'ldi.

Chet til, xususan, ingliz tilini kichik yoshdan o'rganish va o'rgatish ham o'z tarixiga ega. Kichik yoshdan ingliz tili o'rganish va o'rgatish dastlab yuqori tabaqa 7 oilalarda tajriba qilingan bo'lsa (Anna-and-the-King-of-Siam), 1950 - yillarda AQSH

va Yevropa mamlakatlarida ommaviy tus oldi va o'n yil ichida «Foreign Language in Elementary School» dasturi asosida ta'lim oluvchi o'quvchilar soni bir millionga yetdi. Fransiya, Shvetsiya va Gollandiyada esa 1950-yillar o'rtalarida «English without a book» dasturi asosida ingliz tili 3-sinfdan o'qitila boshlandi.

2013 - yil Moskva (Rossiya)da «Chet tillarni o'qitish nazariyasi va amaliyoti: an'analar va innovatsiyalar» mavzusida o'tkazilgan xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyada ham boshlang'ich sinf o'quvchilariga ingliz tili o'qitish metodikasining dolzarb muammolari muhokama etildi.

O'zbek maktablari uchun dastur tayyorlashning o'z tarixi bor. 1968 -yilga qadar o'zbek maktablarida Rossiya uchun mo'ljallangan dasturlarning mahalliyashtirilgan nusxalaridan foydalanib kelingan. O'zbek maktablari uchun dastur loyihasi 1968-yilda ishlab chiqilgan va 1970/71-o'quv yilida maktablarda joriy etilgan. 1999-yilda o'quv dastur yangilandi va uning asosida yangi darsliklar yaratildi.

Chet tilni barcha umumiy o'rta ta'lim maktabining 1-sinfdan boshlab ommaviy o'rganish joriy etilishi munosabati bilan Yevropa Kengashining «Chet tilni egallashning umumyevropa kompetensiyalari: o'rganish, o'qitish, baholash» to'g'risidagi xalqaro hujjat (CEFR)ning ayrim holatlarini nazarda tutgan holda Uzluksiz ta'lim tizimining chet tillar bo'yicha Davlat ta'lim standarti va O'quv dasturlari ishlab chiqildi va 2013–2014 o'quv yilidan boshlab bosqichma-bosqich amaliyotga joriy etildi.

Bugungi kunda boshlang'ich ta'limda ingliz tilini o'qitish metodikasi «(Inter)Cultural Awareness», «Language Awareness» va «Humanity» ta'lim konsepsiyalari asosida rivojlantirilmoqda.

Zamonaviy boshlang'ich ta'limdagi eng asosiy va ijobiy o'zgarishlarga sabab bo'lgan qarorlardan biri bu O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidentining 2012-yil 10-dekabrda "Chet tillarni o'rganish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" PQ- 1875-sonli Qaroridir. Ushbu qaror asosida chet tillarini, asosan, ingliz tilini o'rganish umumiy o'rta ta'lim maktablarining 1-sinflaridan o'yin tarzidagi darslar va og'zaki nutq darslari shaklida, 2-sinfdan boshlab esa, alifbo, o'qish va grammatikani o'qitish bosqichma-bosqich boshlanadi. Qarorga ko'ra, Chet tillarni o'rganishni yanada rivojlantirish bo'yicha doimiy ishlaydigan Muvofiqlashtiruvchi kengash boshchiligida ta'lim sohasining barcha yo'nalishlarida beqiyos ko'lamli ishlarni amalga oshirishga kirishildi. Masalan, 2013-2014 o'quv yilidan e'tiboran umumta'lim maktablarining birinchi sinflarida xorijiy tillarni o'yin tarzidagi mashg'ulotlar va og'zaki nutq darslari shaklida uzluksiz o'rgatish yo'lga qo'yildi. Shuningdek, ushbu sinflarga mo'ljallangan darslik hamda o'quv-metodik majmualar yaratildi. Diqqatga molik jihati, birinchi sinflar uchun yaratilgan majmualardagi o'yin-mashg'ulotlarning kichkintoylar yoshiga mutanosibliigi ta'minlanadi. Bolalar xorijiy til

bilan ilk tanishishni salomlashish madaniyati, ranglar va kundalik soʻzlarni dialog shaklida oʻrganishdan boshladilar. Shubhasiz, mamlakatimiz taʼlim dargohlarida xorijiy tillar xonalarini zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va oʻqitishning ilgʻor texnik vositalari bilan jihozlash, teleradiokanallarda bolalar va oʻsmirlarni xorijiy tillarga oʻrgatuvchi koʻrsatuv va eshittirishlarni berib borish, boshqa mamlakatlar tarixi va madaniyati, jahon ilm-fani va texnik yangiliklariga bagʻishlangan ilmiy-ommabop xorijiy badiiy va multiplikatsion filmlarni oʻzbekcha subtitrl yordamida muntazam namoyish etish yoshlarimizga dunyo xalqlarining oʻtmishi, madaniyati, ilm-fani bilan yaqindan tanishish imkonini berdi.

Ilmiy manbalarni oʻrganib chiqib boshlangʻich taʼlimda xorijiy tillarni oʻqitishning didaktik tamoyillarini quyidagicha umumlashtirish mumkin:

1. Oʻquvchilarning ingliz tili oʻrganish usullari, strategiyalari va qobiliyatini inobatga olish.
2. Tinglab tushunish mashqlariga ustuvor ahamiyat qaratish.
3. Darslarda maʼnoli kontekstlar va mavzuga oid nutq vaziyatlarini yaratish.
4. Mashgʻulotlarda texnik vositalardan keng foydalanil ish.
5. Oʻquvchilarning yoshiga mos autentik materiallaridan foydalanish.
6. Nutq namunalari asosida ingliz tili oʻrgatish.
7. Mavzularni obrazlashtirish (gapiruvchi qoʻgʻirchoqlar yordamida).

2021 -2025 yil ichida taʼlim muassasalarida inklyuziv taʼlimni joriy qilish va rivojlantirish haqida hukumat tomonidan qarorlar qabul qilindi. Bu esa albatta taʼlim muassasalardagi davomati va oʻzlashtirishi past oʻquvchilar uchun juda koʻp imkoniyatlarni, qulayliklar olib keladi.

Davomati va oʻzlashtirishi past boshlangʻich oʻrganuvchi oʻquvchi guruhlarida, ayniqsa, dastlab oʻquvchilarga chet tillarni oʻrgatishda oʻquvchining yoshi, fiziologik, psixologik xususiyatlarini hisobga olish kerak. Qarorda taʼkidlanganidek, davomati va oʻzlashtirishi past oʻquvchilar birinchi bosqichlarda oʻyin tarzidagi darslar va ogʻzaki nutq darslari shaklida chet tillarini oʻrgatishni amalga oshirish, haqiqatan, kichik yoshdagi oʻquvchilarga mosligidir. Taʼlimda oʻyin texnologiyalaridan foydalanish, eng samarali vositalardan biridir. Oʻyin davomida ularning tafakkuri, dunyoqarashi, fikrlashi kengayib boradi. Olimlar taʼlimga oʻyin orqali yondashuv taʼlim jarayonida osonlashtiradi, deb hisoblagan. Nafaqat osonlashtiradi, balki bu fanga qiziqishini kuchaytirib, bolani chuqur bilim olishiga undaydi. Oʻyin tarzidagi darslar bolalarning ogʻzaki nutqini rivojlanishiga yordam beradi. Boʻsh oʻzlashtiruvchi oʻquvchilar asosan rasml yoki videoli turli koʻrishlarni juda yaxshi koʻrishadi. Turli xil rangli rasmlar orqali, ularning nutqlarini oʻstirishda oʻyinlardan muntazam foydalanib turish lozim. Masalan, Bu nima?, Bu kim?, Kim koʻp soʻz biladi?" kabi oʻyinlardan foydalanish mumkin. Oʻyin jarayonida oʻquvchilarning soʻzlarni eslab

qolishi, to'g'ri talaffuz etishiga qarab rag'batlantirib borish zarur. O'quvchilarning so'z boyliklarini ortib borishiga qarab boshqa turdagi o'yinlar, turli xil musobaqalarni tashkil etish ham muhim ahamiyat kasb etadi. Bo'sh o'zlashtirishchi o'quvchilarga dastlab "Meva nomlari", "Kasblar", "Uy jihozlari" kabi mavzulardagi mashqlarni o'yinlar yordamida bajartirish mumkin. So'ngra ular kompyuterdagi rang-barang tasvirlarga uyg'un holatda ko'rsatilsa, o'quvchilarning nutqi rivojlanib, atrof-muhitga munosabat doirasi kengayadi. Yangi mavzuni namoyish etish bosqichida ekranda so'zlar va uni aks ettiruvchi rasmlar paydo bo'ladi. O'quvchilar so'zlarni tinglab, ularni talaffuz etish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Mavzuni kompyuter yordamida taqdim etishda ta'limni individuallashtirish printsiplari e'tibor berish lozim. Ayrim o'quvchilar so'zning grafik, ayrimlari esa tovushli obrazni qabul qilishda qiyinchilikka uchraydilar. Kompyuter u yoki bu qiyinchilikni mashqlar vositasida bartaraf etib, o'quvchining ingliz tilidan o'zlashtirishga qiynalayotgan jihatlarini topishga va ularni bartaraf etishga yordam beradi.

Ikkinchi bosqichdan boshlab grammatikani o'zlashtirishga qaratilgan boshqa ta'limiy o'yinlarni ham tashkil etish mumkin. Masalan, "Kim savodxon?", Kim zukko?, "Men kimman?", "Zanjir", "Rolli o'yin", "So'z o'rnini top kabi qiziqarli o'yinlar shular jumlasidandir. "Kim zukko?" o'yini imlo savodxonlikni oshirishda yaxshi natija beradi. Bunda karton qog'ozga 5-6 ta so'z yozilgan bo'lib, so'zlar to'g'ri va noto'g'ri yozilgan bo'ladi. O'quvchilardan noto'g'ri yozilgan so'zni topib, to'g'ri yozib berish talab qilinadi. Qaysi o'quvchi noto'g'ri yozilgan so'zlarni to'g'ri va birinchi bo'lib yozib berishga qarab o'yin g'olibi aniqlanadi.

Biz bilamizki, hozirgi ta'lim jaroyonida o'quvchi sub'ekt bo'lishi lozim. Bunda ko'proq interfaol metodlarga e'tiborni qaratish ta'lim samaradorligini oshiradi. Ingliz tili darslariga qo'yilgan eng muhim talablardan biri mustaqil fikrlashga o'rgatishdir. Bugungi kunda ingliz tili o'qituvchilari Amerika Qo'shma Shtatlari, Angliya pedagoglari tajribasiga tayangan holda, quyidagi innovatsion metodlardan foydalanib kelmoqda: "Quvnoq topishmoqlar" (Merry riddles) o'quvchilarga topishmoqlar o'rgatish. Ingliz tilini o'rgatishda muhim ahamiyatga ega, ular o'zlariga notanish bo'lgan so'zlarni o'rganadilar va o'ylab topishmoq javobini topadilar. "Tezkor javob" (Quick answers) o'tilgan dars samaradorligini oshirishda yordam beradi. "Chig'il yozdi" (Warm-up exercises) o'quvchilarni darsga qiziqtirish uchun sinfda har xil o'yinlardan foydalanish. "Pantomima" (Pantomime) bu usul juda qiyin mavzular tushuntirilishi kerak bo'lgan darsda yoki yozma mashqlar bajarilib, o'quvchilar charchagan paytda foydalanilsa bo'ladi. "Hikoya zanjiri" (A chain story) usuli o'quvchilarning og'zaki nutqini oshirishda va xotirani mustahkamlashda yordam beradi. "Rolli o'yinlar" (Acting characters) bu usul darsning barcha tiplarida qo'llanilishi mumkin "Rasmlar so'zlaganda" (When pictures speak) usuli ancha qulay

bo'lib, ingliz tilini o'rgatishda, o'quvchilarning o'g'zaki nutqini rivojlantirishda yordam beradi, buning uchun mavzuga oid rasmlardan foydalanish lozim. "Kviz kartochkalari" (Quiz cards) o'quvchilarning soniga qarab kartochkalar tarqatiladi va hamma o'quvchilar bir vaqtda darsda ishtirok etish imkonini beradi bu esa vaqtni tejaydi.

Xulosa o'rnida ta'kidlash joizki, zamonaviy davrda ingliz tilini o'qitishda o'quvchilarni yosh va psixologik xususiyatlarini inobatga olgan holda, ularga kreativ yondashish, o'qituvchi motivator bo'lish, ulardagi chet tilini o'zlashtirishga bo'lgan qiziqish, o'quvchilar ehtiyojni to'la qondirishga yordam beruvchi innovatsion pedagogik texnologiyalarga asoslangan zamonaviy didaktika (anamal o'quvchilar uchun) ishlanmalarni tayyorlash va ularni amalga oshirishning dars o'tish metodikalarini ishlab chiqish muaommoning amaliy yechimini ta'minlaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Дронов В.П., Копылова В.В. Учебно-методическое обеспечение сегодня – переход к новым формам. // Сборник статей международной научно-практической конференции памяти академика РАО Инессы Львовны Бим. – М.: ТЕЗАУРУС, 2013. – С. 211-212.
2. Горовик, А. А., Турсунов, Х. Х. (2021) Применение средств визуальной разработки программ для обучения детей программированию на примере scratch. UNIVERSUM, 8(77), 27-30.
3. Hamidullo o'g'li, T. H. (2022). HOZIRGI KUNNING DOLZARB IMKONIYATLARI. JAWS VA NVDA DASTURLARI. Scientific Impulse, 1(2), 535-537.
4. Hamidullo o'g'li, T. H. (2022). NEYRON TARMOQLARNING TASNIFI. Scientific Impulse, 1(3), 757-763.
5. <https://kopilkaurokov.ru/angliiskiyYazik/uroki/boshlangich sinflarda ingliz tili ni oqitishda zamonaviy yondashuvlar va innovats>
6. <http://e-library.namdu.uz/74%20Педагогика%20фанлар/Ukuv%20qullanma.Pdf>
7. Iriskulov A.T va boshqalar Kids' English pupil's book 2sinf –Toshkent —O'zbekiston;2014
8. Minamatov, Y.E.O.G.L., & Yusupova, N. M. (2022). SMART TEXNOLOGIYALARDA TA'LIM JARAYONI. Central Asian Academic Journal of Scientific Research, 2(6), 441-445.
9. Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik - har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. - T.: O'zbekiston, 2017. - 104 b.

10. Tadjiboyev G.Sh. Boshlang'ich sinflarda ingliz tilini o'qitish – N., 2019. 7,75 b.
11. Tursunov, H. H., & Hoshimov, U. S. (2022). TA'LIM TIZIMIDA KO'ZI OJIZ O'QUVCHILARNI INFORMATIKA VA AXBOROT TEXNOLOGIYALARI FANIDA O'QITISH TEXNOLOGIYALAR. Новости образования: исследование в XXI веке, 1(5), 990-993.
12. Zokirov, S. I., Sobirov, M. N., Tursunov, H. K., & Sobirov, M. M. (2019). Development of a hybrid model of a thermophotogenerator and an empirical analysis of the dependence of the efficiency of a photocell on temperature. Journal of Tashkent Institute of Railway Engineers, 15(3), 49-57.

O‘ZBEK XALQ MAQOLLARINING MOHIYATI VA XUSUSIYATLARI

Rahmatova Ruxshona G'ulomjon qizi,

Samarqand davlat chet tillar instituti

Narpay xorijiy tillar fakulteti Xorijiy tili va adabiyoti

(ingliz tili) 2302-guruh 2-bosqich talabasi

ruxshonaruxshona173@gmail.com

(+998) 88 947 45 44

Zoirova Dilfuza Xayriddinovna,

Samarqand davlat chet tillar instituti

Narpay xorijiy tillar fakulteti o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada maqollarning shakllanish tarixi, mohiyat va xususiyatlari haqida so‘z borgan. Shuningdek, maqollarning xalqimiz madaniyatida tutgan o‘rni ayrim maqollar misolida tahlil qilingan. Boshqa millat maqollarining tarjima qilinishi, xalqlar o‘rtasidagi do‘stlik aloqalarini mustahkamlashda muhim ahamiyat kasb etishi haqida mulohaza yuritilgan.

Kalit so‘zlar: Maqol, qavlun, tarjima, Folklor janr, “Tarjima san’ati”, do‘stlik, matallar, iboralar, xalq o‘yinlari.

ESSENCE AND CHARACTERISTICS OF UZBEK FOLK PROVERBS

Abstract: This article discusses the history, nature, and characteristics of articles. The role of proverbs in the culture of our people is also analyzed in the example of some proverbs. It was noted that the translation of proverbs of other nations plays an important role in strengthening friendly relations between nations.

Keywords: proverb, qavlun, translation, folklore genre, “The Art of translation”, friendship, matala, phrases, folk games.

Maqollar xalq tajribasidan o‘tgan, voqea-hodisalarning so‘zdagi o‘zgarmas ifodasidir [1]. Mustaqillikka erishganimizdan so‘ng xalq og‘zaki ijodiga alohida e‘tibor qaratdi, bu borada maqollarining ham chetda qolmaganligini ko‘rishimiz mumkin. Hattoki, Birinchi prezident I.A.Karimov “... agarki e‘tibor bersa, tilimizda halollik va poklik haqidagi ibratli hikmatlar bilan birga: “Yo‘lini topdimi, qandini ursin”, “Uzumini yeng-u, bog‘ini surishtirmang” — degan maqollar borligidan ko‘z yumib bo‘lmaydi” [2] deya ta’kidlanganligini ko‘rishimiz mumkin. Demak ijobiy ahamiyat kasb etuvchi maqollar ko‘pchilikni tashkil etsada, ayrim salbiy holatlarni ko‘rsatuvchi maqollarni ham uchratamiz.

Filologiya fanlari doktori B.M.Joʻrayeva oʻz ilmiy tadqiqotlarida oʻzbek xalq maqollari intralingvistik birliklar yordamida shakllangan 6 ta guruhga ajratgan. a) iboralar asosida shakllangan maqollar: sanamay sakkiz demaslik – sanamay sakkiz dema. b) Folklor janrlari asosida shakllangan maqollar: d) eʼtiqodiy tushunchalar asosida shakllangan maqollar, f) xalq umidlari asosida shakllangan maqollar, s) xalq oʻyinlari asosida shakllangan maqollar e) hadislar asosida shakllangan maqollar [3]. Yuqorida keltirib oʻtilgan yoʻnalishlar xalq maqollarining shakllanish jarayonlari mazmun – mohiyatidan kelib chiqib guruhlariga ajratilgan. Xalqlar oʻrtasidagi madaniy aloqalarning shakllanishi va rivojlanishining bir boʻlagi tarjima asar hisoblanadi. Bu haqida V.G.Beliniskiy “Bir xalqning adabiy asarlarini boshqa xalqning tiliga tarjima qilish, ularning oʻzaro yaqinlashishlariga, bir – birlariga gʻoya almashishlariga asos boʻladi, ana shunda yangi adabiy asar kelib chiqadi va aqliy siljish roʻy beradi”, demak tarjima asarlar madaniy aloqalardan tashqari, turli millat vakillarini orasida doʻstlik aloqalarini ham rivojlanishiga sabab boʻladi.

Maqol bu – gapning qaymogʻidir. Qaysi xalq yoki millat tomonidan yaratilmasin, u mazmun-mohiyatidan kelib chiqib, boshqa davlat aholisi ham foydalanishlari mumkin. Ammo Maqollarni tarjima qilish tarjimonlari uchun talaygina muammolarni keltirib chiqaradi. Sabab sifatida shuni keltirib oʻtish mumkinki, tarjimon oʻz sohasidan tashqari tarix, falsafa va boshqa fan sohalaridan ham xabardor boʻlishi talab etiladi. Bu haqida Gʻaybulloh Salomov “Tarjimonda yozuvchi va tanqidchidan, aktyor, rassom va olim mehnatidan ham nimadir bor. Bu shundan iboratki, tarjimon soʻzshunos boʻlib tahlil qiladi, aktyor singari boshqalarning (shu oʻrinda- muallifning) qiyofasiga kiradi va ayni vaqtda oʻzligini saqlaydi....” [4]— deya taʼkidlagan edi oʻzining “Tarjima tashvishlari” kitobida. Demak maqollarning tarjimasi bilan shugʻullanish ham tarjimondan katta masʼuliyatni va tajribani talab qiladi.

Maqollar bizning nutqimizga qadimdan kiritilgan, ammo ularning kelib chiqishi haqida kam odam oʻylaydi. Chunki u davrlarda barqaror frazeologik birliklar mavjud emas edi. Shunday boʻlsada maqollar yangi muloqot madaniyatining shakllanishiga yordam berdi. Qadimiy dostonlarimizda keltirib oʻtilgan maqollar bugungi kunda ham oʻzining ahamiyatini yoʻqotmasdan xalqimiz soʻzlashuvida, adabiyotida, bir soʻz bilan aytganda fikrni qisqa, loʻnda qilib ifodalash uchun ishlatilib kelinmoqda. “Maqol” atamasi arabcha qavlun - gapirmoq, aytmoq soʻzidan olingan. Maqol janrining oʻrganilish tarixi Mahmud Koshgʻariyga borib taqaladi. Oʻzining “Devonu lugʻati turk” asarida 400 ga yaqin maqol va matallar oʻrin olgan, undan tashqari soʻz mulkning sultoni Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur va boshqalarning ijodida ham maqollarga alohida eʼtibor berilganligini koʻrishimiz mumkin. Maqollar soʻz boshi oʻrnida ishlatilgan hikoyalarni ham koʻplab uchratamiz. Adib Abdulla

Qahhorning “O‘g‘ri” hikoyasida epigrafida sifatida “Otning o‘limi – itning bayrami” maqoli keltirilgan. Bu adibning mahorati bilan bir qatorda, hikoyaning mazmun-mohiyatini bir maqolda ochib bergandek ko‘rinadi.

K. Jo‘rayev o‘zining “Tarjima san’ati” nomli kitobida tarjimachilik faoliyatiga alohida to‘xtalib, ushbu tarifni keltirib o‘tgan: “Tarjimachilik ishi—milliy adabiyotlarni o‘zaro ayirboshlash, birida uchraydigan milliy biqlik va kamchilikni ikkinchisida bartaraf qilishga imkon beruvchi eng ishonchli vositalardan biri. Tarjimon esa shu ijodiy jarayonni amalga oshiruvchi adib”[5]. Albatta tarjima faoliyati bilan shug‘ullanish bu – millatlar o‘rtasidagi do‘stlik rishtalarini mustahkamlashga, an‘ana va urf – odatlarga hurmat, ayrim kamchiliklar bo‘lsa, tarjima qilinganda tuzatilishiga ham sabab bo‘ladi. Maqol – donolik, donishmandlik ramzi. Uni to‘g‘ri o‘qib, to‘g‘ri anglash va boshqalarga yetkazish alohida layoqatni talab qiladi. Bunda g‘o‘rlik, mas’ulyatsizlikka erk berib bo‘lmaganidek, bilib-bilmay o‘zlashtirishga ham yo‘l qo‘yib bo‘lmaydi. Maqollarni nashrga tayyorlab, uni ko‘pchilikka manzur etaman, degan odam avval uni mag‘zini chaqib ko‘rishi kerak.

Xalq og‘zaki ijodi namunalarida – doston, qo‘shiq, maqol yoki metal bo‘lsin-birgina so‘zning o‘zgarishi bilan matn ma‘nosi butunlay o‘zgarib ketishi, ohangi, badiiyatiga putur yetishi mumkin.

Dunyoda hamma xalqlarning tillarida ham do‘stlik, birodarlik, hamjihatlik va hamkorlik to‘g‘risida juda ko‘p maqollarni uchratamiz. Sharq xalqlarida ham do‘stlik to‘g‘risida ajoyib maqollar yaratilgan. Boshqird maqoli “Xalqlarning do‘stligi – ularning boyligidir” yoki Gruzin maqoli “Daraxt tomiri bilan, odam do‘stlari bilan” Tatar maqoli “Qushning kuchi qanotida, odamning kuchi do‘stlikdadir”—degan g‘oya ilgari surilganligini ko‘ramiz. Yuqorida keltirilgan maqollarda shakl o‘zgargani bilan mazmun saqlangan ya‘ni bir xil g‘oya va maqsadga xizmat qilishini ta‘kidlash mumkin. O‘zbeklarda esa: “Do‘sting uchun zahar yut”—degan maqol bor. Shunday ekan biror millatning maqoli tarjima qilinib boshqa xalqlar ham foydalansa, yoki mazmuni bir-biriga yaqin maqollar, millatlarning do‘stlik rishtalarini bog‘lashga xizmat qiladi.

Xalqning tilida mavjud bo‘lgan har bir so‘z tilda ifodalanar ekan, ma‘lum xalqning maqollari o‘sha xalq tilida keltirilgan so‘zlardan shu xalq vakillari tomonidan shu xalqning o‘ziga xos xususiyatlari bilan, yasaliish usuli bilangina ifodalanadi. Shu o‘rinda ayrim ingliz tilidan kirib kelgan maqollardan ham kirib kelgan maqollardan misollar keltirib o‘tishimiz mumkin. Jumladan: “Ertaga hech qachon kelmaydi”, “Yaxshi kitobdan ortiq haqiqiy do‘st yo‘q” va “It bilan yotgan, burga bilan uyg‘onadi” kabi ko‘plab maqollarga o‘xshash, m’nolari bir-biriga yaqin bo‘lganlari bizda ham ko‘plab uchraydi.

Xulosa o'rnida ta'kidlash mumkinki, har bir millatning o'ziga xos madaniyat asosida maqollari ham shakllanadi va shu millatning madaniy merosiga aylanadi. Maqollarda asosan o'sha xalqning urf – odatlari, an'analari, quvonchi va qayg'usi o'z aksini topadi. Boshqa xalqlarning maqollari tarjima qilinganda, milliylikga alohida e'tibor berilish katta ahamiyat kasb etadi. Shu bilan birga xalqlar o'rtasida o'stlik aloqalarini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. I.A.Karimov. Yuksak ma'naviyat- yengilmas kuch. Ma'naviyat: Toshkent. 2008. 21-bet.
2. ЖЎРАЕВА БИБИШ МУҲСИНОВНА. ЎЗБЕК ХАЛҚ МАҚОЛЛАРИ ШАКЛЛАНИШИНИНГ ЛИНГВИСТИК АСОСЛАРИ ВА ПРАГМАТИК ХУСУСИЯТЛАРИ. АВТОРЕФЕРАТИ. Самарқанд. 2019 17-20 бетлар.
3. К. Жўраев. Таржима санъати. Тошкент. 1982 й. 31-б.
4. X.Suvonqulova. O'zbek xalq maqollari. Adabiyot uchqunlari: Toshkent. 2014.
5. G'aybulloh Salomov, Tarjima tashvishlari. Toshkent, 1983. 7-bet.
6. G'aybulloh Salomov, Tarjima tashvishlari. Toshkent, 1983. 8-bet.

ALISHER NAVOI'S "KHAMSA" IN THE VIEW OF WORLD

*Narzullayeva Dilshoda Oybek kizi**Student of Samarkand State Institute of Foreign Languages**Narpay faculty of Foreign Languages**shodanarzullayeva@gmail.com**Suprior teacher: Zoirova Dिल्фуза Хайриддиновна*

Abstract: Khamsa, created by Alisher Navoi, is a collection of five epic poems written in Chagatai Turkish and holds a significant place in Uzbek literature. This work not only reflects national values but also possesses universal and philosophical depth, garnering interest worldwide. Numerous foreign writers and literary scholars have highly appreciated Khamsa for its unique style, cultural values, and inclusion of Sufi teachings. This article focuses on the international analysis of Khamsa and examines its contribution to world literature.

Keywords: Alisher Navoiy, Khamsa, Chagatai language, world literature, Sufism, cultural values, world writers.

Introduction

Alisher Navoi, one of the prominent poets of the 15th century from Central Asia, is celebrated for his Khamsa, which stands as one of the greatest literary monuments in Uzbek and Turkic literature. Khamsa consists of five epics: Hayrat ul-Abror ("Wonder of the Righteous"), Farhad va Shirin, Layli va Majnun, Sab'ai Sayyor ("Seven Planets"), and Saddi Iskandari ("The Wall of Iskandar"). Through these epics, Navoi eloquently conveys human values such as love, morality, justice, and spiritual growth. By writing in Chagatai, Navoi demonstrated that Turkic languages could serve as a sophisticated literary medium, contrasting with the dominant Persian literary tradition of his time. World writers and literary scholars acknowledge Khamsa not only for its literary significance but also for its philosophical value, emphasizing its uniqueness, universality, and rich cultural heritage.

Main Findings and Results

1. Khamsa's Linguistic and Cultural Significance

World literary scholars view Alisher Navoi's Khamsa as a groundbreaking work in the history of Turkic literature. Russian Orientalist V.V. Barthold emphasized how Navoi's choice to write in Chagatai Turkish demonstrated the richness and potential of Turkic culture. By creating a literary work comparable to Persian masterpieces, Navoi endowed Turkic culture with literary independence. Additionally, Turkish literary historian Mehmet Fuat Köprülü stated that Khamsa played a crucial

role in solidifying Turkic cultural heritage, an influence that continues in modern Turkic literatures.

2. Comparison with Persian Literature

Writers and scholars worldwide, especially those familiar with Persian literature, often compare Navoi's Khamsa with the work of the Persian poet Nizami Ganjavi. Persian literary scholar Zabihollah Safa pointed out that, while inspired by Nizami, Navoi tailored his works to reflect values relevant to the Turkic world. In tales like Farhad va Shirin and Layli va Majnun, Navoi blends Persian literary tradition with Turkic values. British Orientalist Edward G. Browne praised Navoi's ability to harmonize Persian and Turkic cultures, interpreting his work as a literary bridge connecting Eastern and Western literary traditions.

3. Sufi Influence and Philosophical Foundation

Navoi's works, embodying Sufi teachings, have attracted the interest of many Western experts. French Sufism scholar Éva de Vitray-Meyerovitch noted Navoi's deep connection with Sufi spirituality, which is apparent throughout his writings. In Layli va Majnun, for instance, Majnun's love for Layli symbolizes a yearning for divine love, urging readers to pursue inner spiritual growth. German Orientalist Annemarie Schimmel emphasized that Navoi's exploration of philosophical issues through Sufism positioned Khamsa among the most profound literary works globally.

4. Modern Interpretation and Gender Issues

In recent years, scholars have revisited Navoi's work from modern perspectives on gender and social justice. American scholar Michael Barry has observed Navoi's portrayal of female characters, such as Shirin in Farhad va Shirin and Layli in Layli va Majnun, as independent and strong, challenging traditional roles. According to Barry, these portrayals highlight emotional and moral depth, which was revolutionary for Navoi's era. Turkish literary critic Murat Bardakçı also noted that Khamsa addresses themes of social justice, showing that Navoi's work has the power to impart universal lessons on gender equality and personal respect to today's readers.

Conclusion

Alisher Navoi's Khamsa has been highly praised by writers around the world from various perspectives. This work stands out not only for strengthening Turkic culture but also for its deep attention to human spirituality and philosophical themes. Navoi's unique views on Sufism and gender issues have bridged diverse cultures, inspiring contemporary readers and earning renewed appreciation. Khamsa is undoubtedly a masterpiece with a unique place in world literature history, and its legacy continues to thrive.

References:

1. Barthold, V.V. Central Asian Literary Heritage. Moscow: Nauka, 1963.
2. Browne, Edward G. A Literary History of Persia. London: Cambridge University Press, 1902.
3. Köprülü, Mehmet Fuad. Turkish Cultural Legacy in Literature. Istanbul: İş Bankası, 1926.
4. Safa, Zabihollah. Persian Literary Figures and Their Influence. Tehran: University of Tehran Press, 1971.
5. Schimmel, Annemarie. Mystical Dimensions of Islam. Chapel Hill: University of North Carolina Press, 1975.
6. Vitray-Meyerovitch, Éva de. Sufism and Universal Wisdom in Central Asian Poetry. Paris: Gallimard, 1983.
7. Barry, Michael. Women and Power in Central Asian Poetry

MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARIDA TA'LIM SIFATINI NAZORAT QILISH VA TASHKIL ETISH

*Qoraqolpog'iston Respublikasi Muynoq tumani 3-sonli
DMTT direktori - Tugelbaeva Qundiz*

Annotatsiya: Maqolada mamlakatimizda maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish va rivojlantirish borasida amalga oshirilayotgan islohotlar, boshqaruv ta'lim sifatini nazorat qilish va boshqarishtashkil qilish xususida fikr bayon etilgan.

Аннотация: В статье описаны реформы, которые проводятся с целью дальнейшего совершенствования и развития системы дошкольного образования в нашей стране, а также управления и контроля качества образования.

Kalit so'zlar: maktabgacha ta'lim tizimi, tashkilot, menejment, boshqarish metodlari, kadrlar, ta'lim sifati, ilmiy yondashuv, jarayon, vaziyatli, dasturiy-maqсадli yondashuv, kadrlar siyosati.

Ключевые слова: система дошкольного образования, организация, менеджмент, методы управления, персонал, качество образования, научный подход, процесс, ситуационный, программный подход, кадровая политика.

Tashkiliy pedagogik faoliyatni kuzatishda: - mudiraning bu ishni to'g'ri tashkil etgani, uning tashkiliyma'muriy, tarbiyaviy va moliyaviy-xo'jalik ishlarini samarali olib borayotgani, jamoa a'zolari, tarbiyachi va boshqa [xodimlar bilan munosabati](#), shuningdek, ota-onalar bilan o'zaro munosabatlarini qanday yo'lga qo'yganiga e'tibor qaratish maqsadga muvofiqdir.

Ta'lim jarayonini nazorat qilish uchun:

- **Davra suhbatlari va seminarlar:** O'qituvchilarni tajriba almashishga jalb qilish.
- **Testlar va monitoring:** Bolalarning bilim va ko'nikmalarini muntazam ravishda baholash.
- **Hisobot va tahlil:** Faoliyat natijalarini doimiy ravishda tahlil qilish va xatolarni tuzatish.

Nazorat qilish (tekshiruv)ning usul va uslublari.

✚ bolalarning tashkilotdagi mashg'ulotlarini, kun tartibining turli jarayonlarini kuzatish va tahlil qilish;

✚ pedagogik va moliyaviy-xo'jalik ishlariga oid hujjatlarni o'rganish va tahlil qilish; bolalar ishlarini tahlil qilish;

✚ mudira, [tarbiyachilar](#), ota-onalar va bolalar bilan (ularning bilimi, ongi, nutqining rivojlanishini aniqlash maqsadida) suhbatlashish;

✚ «Pedagogik kengash», «Ishlab chiqarish majlislari»da, ota-onalar kengashlarida ishtirok etish; jamoat tashkilotlari vakillari bilan suhbatlashish.

Tekshiruv jarayonida qanday usul va uslublarni qo'llash [nazorat qilish turiga](#), muayyan guruhda tarbiyaviy jarayonning qay jihati yoki muassasa moliyaviy-xo'jalik ishlarining qaysi tomonlari tekshirilishi, nazoratchi uslubchining kasbiy mahorati va amaliy tajribasiga bog'liqdir. Tekshiruv jarayonida turli usullarning qo'llanishi maktabgacha ta'lim muassasasi ishini har tomonlama o'rganishda g'oyat ahamiyatlidir. Kuzatish usuli bu — pedagogik jarayondagi [yutuq va kamchiliklarni](#), ishdagi qiyinchiliklarni bartaraf etish va ta'lim-tarbiya ishlari samaradorligini oshirishga xizmat qiladigan. Shuningdek, kuzatish uslubi — muassasadagi pedagogik jarayonga, uslubiy va moliyaviy-xo'jalik faoliyatining holatiga to'g'ri baho berish va zarur xulosalar chiqarishga imkoniyat yaratadi. Yalpi tekshirish usuli orqali muassasaning kun davomidagi faoliyatining barcha jihatlarini: tashkiliy ma'muriy, moliyaviy-xo'jalik, ta'lim-tarbiya [ishlarining mazmuni](#), yo'nalishlari, samarasi va natijalari kuzatiladi.



Zamonaviy boshqaruv bu maktabgacha ta'lim tashkiloti rahbarining tashkilot oldidagi burchi bu uning o'zi boshqarayotgan tashkilotning rivojlanishida turli vaziyatlarda tashkilot tashqi omillarini tashkilot ichki omillariga, ya'ni pedagogik xodimlar, ta'lim texnologiyalar, ta'lim jarayonini rejalashtirish boshqarish mexanizmlarini erta

anglay bilishi va shu asnda oqilona qarorlar qabul qilishi bilan belgilanadi. Prezidentimizning quyidagi berilgan fikrlari maqolamizning kirish qismida berib o'tishni joiz topdik: "Har bir fuqaro qabul qilayotgan qarorlarimiz real foyda berayotganini bilishi kerak. Boshqaruv boshqariladigan obyektidagi jarayonlarning aniq maqsadga qaratilganligini va uyushganligini ta'minlashi lozim. Boshqaruv o'zining bu vazifasini bilishi kerak bo'lgan narsaning qiyofasini (maqsadlar va ularga erishish rejalarini) shakllantirish; ijrochilar o'rtasida vazifalar va vakolatlarni taqsimlash (rasmiy tuzilmani yaratish va saqlab turish); ijrochilarning samarali mehnatdan manfaatdorligini ta'minlovchi sharoit yaratish (rag'batlantirish); jamoada umumiy kadriyatlar va qulay munosabatlarni shakllantirish (norasmiy tuzilma yaratish

va saqlab turish); ishning borishini nazorat qilish kabi va boshqa maxsus boshqaruv vazifalarini hal qilish orqali amalga oshiradi.

Maktabgacha ta'limda ta'lim jarayonini nazorat qilish ta'lim sifatini oshirish, bolalarning rivojlanish ko'rsatkichlarini kuzatish va o'qituvchilarning faoliyatini samarali tashkil qilish uchun muhim ahamiyatga ega. Bu jarayon tizimli yondashuvni talab qiladi va quyidagi asosiy yo'nalishlarni o'z ichiga oladi:

Tashkiliy-boshqaruv metodlari qonunga, xuquq-tartibotga, lavozimi bo'yicha o'zidan yuqoriroq bo'lgan xodimga bo'ysunishga, ya'ni hokimiyat motivatsiyasiga asoslanadi.

1. Pedagogik faoliyatni nazorat qilish

- bolalarning dars rejalari va metodik materiallarini tahlil qilish.
- Bolalar bilan ishlashda qo'llanilayotgan metodlarning samaradorligini baholash.
- O'qituvchilarning o'z-o'zini rivojlantirish va malakasini oshirish jarayonlarini kuzatish.

2. Bolalarning rivojlanishini kuzatish

- Bolalarning individual rivojlanish ko'rsatkichlarini muntazam ravishda baholash.
- Ularning jismoniy, intellektual, ijtimoiy va hissiy rivojlanish darajalarini kuzatish.
- Turli o'yinlar, mashg'ulotlar va faoliyatlar orqali bolalarning qobiliyatlarini aniqlash.

3. Ta'lim sifati monitoringi

- Dars va mashg'ulotlarning dasturiy talablarga mosligini baholash.
- O'quv jarayonida zamonaviy pedagogik va innovatsion texnologiyalardan foydalanishni nazorat qilish

Ta'lim sifatini boshqarish, eng avvalo, boshqaruv kadrlari tomonidan ta'lim va



kadrlar tayyorlash jarayonini kuzatish kabi faoliyat turidan foydalanishni ko'zda tutadi. Buning uchun ular tegishli metodlarni, jumladan, kvalimetriya asoslarini, ya'ni sifatni miqdoriy baholash metodini qo'llash orqali ta'lim sifatining boshlang'ich va berilgan holatini aniq belgilashlari lozim bo'ladi. Ilmiy

adabiyotlarda mahsulot, xizmatlar sifatini baholash, boshqaruv faoliyatining baholash ob'ekti to'g'risida qadriyat borasidagi mulohazalarni shakllantirishga qaratilgan funksiyasining alohida tipiga kiritiladi. Ta'lim sifatini o'lchash sifat o'lchovini

belgilash va uning qiymatini maxsus algoritmlar yordamida olishni ko'zda tutadi. Bunday jarayonning samaradorligi baholashning statistik metodlarini qo'llash orqali ta'minlanadi. Bu baholanayotgan ob'ektning sifat ko'rsatkichlari qiymati aksariyat hollarda tasodifiy kattaliklar deb hisoblanishi bilan bog'liqdir. Bunday holat ana shu sifatga bevosita yoki bilvosita ta'sir ko'rsatuvchi ko'plab omillar va shart-sharoitlar bilan izohlanadi. SHu bois boshqaruv tarkibi ta'lim sifati haqidagi axborotni olish va ishlashning statistik metodlarini qo'llay bilishi kerak.

2. Mashg'ulotlarni samarali tashkil qilish

Mashg'ulotlarni to'g'ri tashkil etish bolalarning qiziqishi va e'tiborini jalb qilishga yordam beradi. Bunda quyidagilar muhim:

a) Rejalashtirish

- Mashg'ulot mavzulari davlat ta'lim standartlariga mos ravishda tanlanadi.
- Mashg'ulotlar bolalarning yoshiga va rivojlanish darajasiga moslashtiriladi.
- Har bir mashg'ulotda o'yin elementlari, amaliy mashqlar va guruhli faoliyatlar kiritiladi.

b) O'yinlar va faoliyatlar

O'yinlar va amaliy faoliyatlar bolalarning rivojlanishi uchun asosiy vosita hisoblanadi:

- **Dastlabki bilimlarni mustahkamlash o'yinlari** – masalan, ranglarni, shakllarni yoki hayvonlarni aniqlash.
- **Qo'l mehnati mashg'ulotlari** – rasm chizish, bo'yash, qirqish yoki elimlash.
- **Jismoniy faoliyatlar** – jismoniy mashqlar, raqs va o'yinlar.

c) Individual yondashuv

Har bir bolaning qobiliyatlari, qiziqishlari va ehtiyojlariga mos yondashish:

- Bolalar orasidagi individual farqlarni hisobga olish.
- Qobiliyatli bolalarni qo'shimcha rivojlantirish uchun alohida topshiriqlar berish.
- Qo'llab-quvvatlashga muhtoj bolalarga alohida e'tibor qaratish.

Pedagogik mahoratga ega bo'lgan pedagog tarbiyadagi qiyinchiliklarni yengishga qodir bo'lgan nufuzli rahbar, o'sib kelayotgan yosh avlodning ma'naviy dunyosini tushuna oladigan, ularning tuyg'ularini his qila oladigan, ichki dunyosi nozik bo'lgan bola shaxsiga mohirlik bilan avaylab yondashadigan, donolik va ijodiy dadillik, ilmiy tahlil, xayol va fantaziya, chuqur ilmiy tafakkurga ega bo'lgan shaxslardir. Maktabgacha ta'lim tashkilotlari o'quv faoliyatining sifati o'quv jarayonini rejalashtirish, uni amalga oshirish, o'quv reja, dasturlarining mazmun mohiyati bilan yemas, balki tahsil oluvchilarning olgan bilimlari, malaka va ko'nikmalari, mustaqil ravishda olgan bilimlari bilan bog'liq ta'lim natijasi sifati bilan belgilanmoqda.

Xulosa: Yuqoridagilardan kelib chiqib, bugungi kunda davlat va nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ta'lim va tarbiya sifatini takomillashtirish muammosini alohida tadqiqot predmeti sifatida o'rganish ehtiyoji sezilmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish kontseptsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi Qarori, 2019., 13 may, PQ 4312 son.
2. Narimbaeva L.K Maktabgacha ta'lim sifatini nazorat qilish va boshqarishning mexanizmlarini takomillashtirish. "Экономика и социум" №9(88) 2021 www.iupr.ru 944-945b
3. Mirziyoev SH.M. "Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz" " O'zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga kirishish tantanali marosimiga bag'ishlangan Oliy Majlis palatalarining qo'shma majlisidagi nutqi Toshkent-"O'zbekiston" -2016, 11-bet, 20-bet.
4. Mirziyoev SH.M. Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob halqimiz bilan birga qo'ramiz. –Toshkent:O'zbekiston, 2017.-488 bet.

MAKTABGACHA TA'LIM TIZIMIDAGI RAHBARLARINING PEDAGOGIK MAHORATNI OSHIRISH

Islomova Maxbuba Ne'matovna
Qashqadaryo viloyati Shahrisabz tuman
19-son DMTT direktori

Annotatsiya. Bu maqolada maktabgacha ta'lim tizimida olib borilayotgan o'zgarishlar, islohotlar va innovatsion yondashuvlar va ta'lin samaradotligini oshirish haqida aytib o'tilgan. Bundan tashqari ta'limda pedadog tarbiyachi, muallimlarning pedagogik mahoratini oshirish ma'lumotlar keltirilgan.

Аннотация. В данной статье говорится об изменениях, реформах и инновационных подходах в системе дошкольного образования и повышении эффективности образования. Кроме того, имеется информация о повышении педагогического мастерства педагогов и учителей образования.

Abstract. This article talks about the changes, reforms and innovative approaches in the preschool education system and improving the effectiveness of education. In addition, there is information on improving the pedagogical skills of pedagogues and teachers in education.

Kalit so'zlar: ta'lim tizimi, samaradorlik, bolalar, pedagog tarbiyachi, ta'lim jarayonlari, pedagogic mahorat, pedagogic texnika.

Ключевые слова: образовательная система, эффективность, дети, педагог-воспитатель, образовательный процесс, педагогическое мастерство, педагогическая техника.

Key words: educational system, efficiency, children, teacher educator, educational processes, pedagogical skill, pedagogical technique.

Pedagogik mahoratni oshirishning ahamiyati

- **Rahbarlik ko'nikmalarini rivojlantirish:** Maktabgacha ta'lim muassasasidagi barcha jarayonlarni boshqarish samaradorligini oshiradi.
- **Innovatsion yondashuvlarni joriy etish:** Zamonaviy pedagogik texnologiyalarni joriy qilishga yordam beradi.
- **Bolalarning ta'lim va tarbiyasini yaxshilash:** Rahbarlar uchun yuqori darajadagi mahorat muhimdir, chunki ular o'qituvchilarning faoliyatiga ta'sir ko'rsatadi.

Rahbarlarni o'z malakalarini mustaqil oshirishga undash:

- Maxsus adabiyotlarni o'qish.
- Pedagogik bloglar va onlayn vebinarlarni kuzatish.

- Xalqaro konferensiyalarda qatnashish.

Rahbar yoshi. Boshqaruv faoliyatini muvaffaqiyatli amalga oshirishning rahbar yoshiga bog‘liqligi rivojlangan mamlakatlar tadqiqotlariga asoslanadi. Aniqlanishicha, Yaponiya qayta ishlab chiqarish rahbarlarining o‘rtacha yoshi 63,5 bo‘lsa, shu toifa amerikalik rahbarlarning yoshi 59 da ekan. Yaponiya yirik kompaniya rahbarlarini o‘rganishda uchraydigan va taajjublanarli jihatlardan biri, ularning yoshi ulug‘ligidir. Shunga ko‘ra axborotlashtirish yoki axborotli malakaning asosiy maqsadi egallanadigan ixtisoslik shaxsiy intellektual faoliyat mazmunida yangi axborot texnologiyalaridan foydalanish yordamida ta‘lim samaradorligini oshirish, o‘qitish jarayonini to‘liq axborotlashtirish imkoniyatlariga ega bo‘lish va shu asosda ilmiy-texnikaviy taraqqiyot natijalarini o‘quv-tarbiya jarayoniga keng tadbiq etishni nazarda tutadi. Individual ta‘lim bir qator afzalliklarga ega, shuning uchun bu usuli bizning davrimizgacha repetitorlik shaklida saqlanib qolgan.



Pedagogik mahorat rahbar va tarbiyachilarga pedagogik ijodkorlik, pedagogik texnika, ta‘lim - tarbiya jarayonida o‘qituvchi va o‘quvchilarning o‘zaro hamkorligi, muloqot olib borish taktikasi, nutq madaniyati, tafakkuri, tarbiyachining ma‘naviy-ma‘rifiy va tarbiyaviy ishlarini tashkil

etish va amalga oshirish, bu jarayonda xulq-atvori va hissiyotni jilovlay olish xususiyatlarini o‘rgatadi va o‘z kasbini rivojlantirib boruvchi pedagogik faoliyatlar tizimi to‘g‘risida ma‘lumotlar beradi. Pedagogik mahorat rahbarning pedagogik faoliyati zahirida takomillashib boradi. O‘qituvchi mahorati uning faoliyatida ko‘rinadi. O‘qituvchi avvalo pedagogik jarayonning qonuniyatlari va mexanizmlarini yaxshi egallagan bo‘lishi lozim. Shu ma‘noda pedagogning umumlashgan malakalari va uning pedagogik texnikasi katta ahamiyatga molik bo‘ladi. Biroq mahorat - bu alohida qudrat. Yuqori va kichik darajada Usta bo‘lishi mumkin emas. Mahoratga erishish ham, erishmaslik ham mumkin. Yosh rahbar boshqaradigan tashkilotdagi xodimlarning o‘rtacha yosh ko‘rsatkichi ko‘pincha past bo‘ladi. Yoshlik (30–35 yosh atrofida) bu yangilik va kashfiyotlarga moyillik, moslashuvchanlik bilan ifodalanadi. Afsuski, bunday tashkilotda katta yoshdagi (40–45 dan yuqori) aniqlanishicha, inson 35–55 yoshlarida o‘z kasbining mohir ustasiga aylanadi, o‘z sohasidagi bilimni yaxshi egallaydi va ixtirolarni joriy etishga o‘zida ishtiyoq sezadi. Shu bilan birga, unda vaziyatni sovuqqonlik bilan tahlil etish, vazminlik kayfiyati shakllanadi.

Maktabgacha ta‘limning yangi sifati nafaqat uning mazmuni, balki ta‘lim tashkilotini boshqaradigan rahbarning boshqaruv mahorati, boshqaruv kompetensiyasiga ega ekanligi, shaxsiy sifatleri, yangi bilimlarni va innovatsiyalarni

tatbiq etishga bo'lgan munosabatiga bog'liq. Albatta, bu jarayon malaka oshirish sifatini tubdan yangilashga, malaka oshirish tizimiga yangi innovatsion ta'lim texnologiyalari va variativ dasturlarni joriy qilishni taqozo etadi. Shuningdek, maktabgacha ta'lim tizimi rahbar kadrlari uchun zaruriy kompetensiya talablarini ishlab chiqish talab etiladi.

Pedagogik mahoratni oshirish usullari

a) Kasbiy tayyorgarlikni oshirish

- **Malaka oshirish kurslari:** Rahbarlar pedagogik va menejerlik malakasini oshiradigan maxsus treninglarda qatnashishlari lozim.
- **Sertifikatlash dasturlari:** Zamonaviy bilimlar va yondashuvlarni tasdiqlash uchun rahbarlarni maxsus dasturlarda qatnashishga jalb qilish.
- **Xorijiy tajriba almashinuvi:** Xalqaro tajribalarni o'rganish va o'z tizimida qo'llash.

b) Rahbarlar uchun trening va seminarlar

- **Ta'lim menejmenti bo'yicha seminarlar:** Maktabgacha ta'lim tizimidagi boshqaruv jarayonlarini rivojlantirish.
- **Psixologik tayyorgarlik mashg'ulotlari:** Bolalar va xodimlar bilan samarali muloqot olib borish uchun zarur bo'lgan ko'nikmalarni shakllantirish.
- **Innovatsion texnologiyalarni o'rganish:** Zamonaviy pedagogik dasturlar, metodikalar va texnologiyalarni joriy etish.

c) Ilmiy-tadqiqot faoliyati

- Rahbarlarni ilmiy loyihalar va tadqiqotlar olib borishga jalb qilish, bu esa ularga o'z bilimlarini chuqurlashtirish va tizimda innovatsiyalarni joriy qilishga yordam beradi.



Ya'ni har bir tarbiyachi faoliyatlarni o'yin orqali tashkil etib, bolaga ta'lim –tarbiyaviy jarayonni tashkil etsa, bola mavzuni tez anglab oladi, hamda unda jamoa bo'lib ishlash, tengdoshlaribilan fikr almashish va ular bilan do'stona munosabatda bo'lish tuyg'ulari shakllanadi. Bu jarayonda tarbiyachining mahorati asosiy o'rin egallaydi. **Xorijiy tajribalarga ko'ra, maktabgacha ta'lim tashkiloti rahbar xodimlari taraqqiyotning hozirgi bosqichida quyidagi sifatlarga: “xorijiy tillarda muloqot qila olish”, “kommunikativlik”, “tadbikorlik va ishbilarmonlik”, “raqamli boshqaruv”, “innovatsiyaga yo'nalganlik”, “tizimli tahlil”, “qaror qabul qilish”, “o'z-o'zini rivojlantirish”, “pedagogik nizolarni boshqarish”, “kreativ**

boshqaruv”, “aqli boshqaruv” va boshqa zamonaviy boshqaruv usullariga ega bo‘lishlari lozim.

Ma’lumki, o‘quv mashg‘ulot jarayonida qo‘llaniladigan pedagogik va informatsion texnologiyalar bir necha turlarga bo‘linib, ulardan eng muhimi — kompyuter texnikasi vositalari yordamida ta’lim berishdir. SHundan kelib chiqib, elektron mashg‘ulotlar, mashg‘ulot ishlanmalari va elektron o‘yinlar orqali ham ta’lim samaradorligini oshirish mumkin. Hozirgi kunda sinovdan o‘tgan maxsus axborot vositalari: kompyuter texnikalari, audio va video vositalari qatoriga kelib qo‘shilgan elektron ta’lim resurslari, virtual stendlar, animatsiyali dasturlar vositasida dars mashg‘ulotlarini olib borish talabalar tomonidan dars mashg‘ulotlarini o‘zlashtirishlariga samarali natijalar berib borishi tayindir.

Maktabgacha ta’lim tizimida tarbiyani tashkil etish – bu yosh avlodning jismoniy, ma’naviy, axloqiy va intellektual rivojlanishini ta’minlashga qaratilgan muhim jarayon. Bu bosqich bolalarning shaxs sifatida shakllanishida poydevor vazifasini bajaradi, chunki bu davrda bola dunyoqarashi, qiziqishlari va asosiy ko‘nikmalari rivojlanadi.

- **Axloqiy qadriyatlarni shakllantirish:** Bolalarga yaxshilik, halollik, adolat va birdamlik kabi tushunchalarni singdirish.

➤ **Milliy madaniyatni o'rgatish:** Bolalarda ona tiliga, urf-odatlariga va milliy qadriyatlarga hurmat hissini tarbiyalash.

➤ **Sog'lom turmush tarzini shakllantirish:** Jismoniy tarbiya va sog'lom ovqatlanish madaniyatini o'rgatish orqali bolalarning sog'lom rivojlanishini ta'minlash.

➤ **Ijodiy va intellektual rivojlanish:** O'yinlar, badiiy ijod va mantiqiy fikrlash mashg'ulotlari orqali bolalarning ijodkorlik qobiliyatlarini rivojlantirish.

Tarbiyani rivojlantirish usullari:

✚ **O'yin va faoliyatga asoslangan metodlar:** Bolalarni faol qatnashishga undash va mustaqil fikrlashga o'rgatish.

✚ **Ijodiy mashg'ulotlar:** Tasviriy san'at, qo'shiq aytish va hikoya qilish orqali bolalarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish.

✚ **Tabiat va atrof-muhit bilan tanishtirish:** Bolalarga tabiatni sevishtirish va unga ehtiyotkorlik bilan munosabatda bo'lishni o'rgatish.

Maktabgacha yoshdagi bolaning maktab ta'limiga o'tishi hamisha uning hayoti, ahloqi, qiziqishi va munosabatlarida anchayin jiddiy o'zgarishlarni yuzaga chiqaradi. Shuning uchun bolani uydaligidayoq maktab ta'limiga tayyorlash, uncha qiyin bo'lmagan bilim, tushuncha, ko'nikma va malakalar bilan tanishtirish kerak bo'ladi. Bolalarni maktabga tayyorlash, birinchidan maktabgacha ta'lim tashkilotida tarbiyaviy ishni maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarni umumiy, har tomonlama rivojlantirishning yuqori darajasini ta'minlaydigan, ikkinchidan bolalarni maktabning boshlang'ich sinflarida o'zlashtirishlari lozim bo'lgan o'quv fanlarini egallashga maxsus tayyorlashni ta'minlaydigan qilib tashkil etilishini nazarda tutadi.

Ota -naning jihatlari esa; bola shaxsini hurmat qilish va unga shaxsiy xususiyatlariga muvofiq rivojlanishi uchun erkinlik berish. Bolaning aql-zakovatli bo'lishi-ga va jismoniy hamda ma'naviy jihatdan yetuk bo'lib tarbiya-lanishiga asos yaratish.

Ota -Onaning jihatlari esa;

✚ Bolalarning oilaviy an'analar, marosimlar, urf – odatlar va milliy bayramlarni kutib olishga tayyorlash.

✚ Bolalarni ma'naviy jihatdan tayyorlashda har xil illatlarga nafrat ruhida tayyorlash.

✚ Bolalarga kiyinish odobi va ulardagi intizomlilikni shakllantirish haqida qayg'urish. Salomlashish va ovqatlanish odoblari insoniy fazilatlar ekanligini bolalar ongiga singdirish.

✚ Bolalarda mehnatsevarlik, ezgulik, mehr-shafqat fazilat-larini, o'zidan katta yoshdagilarga hurmat bilan munosabatda bo'lish tuyg'ularini shakllantirishga harakat qilish.



✚ Ota – onaning oilaviy sog'lom muhitni tashkil etishi uchun ibrat – namuna ko'rsatishi, oilada bola tarbiyasiga ruhiy ta'sir qiluvchi omillarni hisobga olinishi, oilada salomatlik tamoyillariga amal qilinishi, salbiy ta'sirlarni bartaraf qilishga bo'lgan harakatlar. Oilada farzandlarning qiziqish-larini o'yinchoqlar yordamida aniqlash va

aniqlangan qiziqish-ni yanada kuchaytirishga ahamiyat berishdan iborat. Odam savdosiga tushib qolgan odamlarning oilalari ham mahalla oldida uyalib, oila tanazuliga uchrashligini farzand-lar ongiga singdirish. Oilada ota–onaning bola tarbiya-sida “Ijobiy o'rnak” ko'rsatishi. Ota – onaning oilaviy sog'lom muhitni tashkil etishi uchun ibrat – namuna ko'rsatishi, oilada bola tarbiyasiga ruhiy ta'sir qiluvchi omillarni hisobga olinishi, oilada salomatlik tamoyillariga amal qilinishi, salbiy ta'sirlarni bartaraf qilishga bo'lgan harakatlar. **Xulosa qilib**, Maktabgacha ta'lim tizimida tarbiya bolaning shaxs sifatida to'laqonli rivojlanishi uchun zarur asosni yaratadi. Bolalarni qiziqarli va foydali faoliyatga jalb qilish, ularning ijtimoiylashuv jarayoniga yordam berish va jismoniy hamda ma'naviy jihatdan sog'lom shaxsni shakllantirish maktabgacha ta'lim muassasalarining eng muhim vazifalaridan biridir.

✚ FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Maktabgacha ta'lim muassasalarida ta'lim jarayonini mavzuli rejalashtirish (barcha yosh guruhlari uchun) 2018 y.
2. O.U. Hasanboeva va boshqalar. Maktabgacha ta'lim pedagogikasi. Pedagogika kolleji uchun o'quv qo'llanma (3-nashr) T.: "Ilm ziyo", 2012y.
3. <http://www.edu.uz>–O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsusta'lim vazirligi sayti.

МАКТАБГАЧА ТА'ЛИМ TASHKILOTLARI RAHBAR XODIMLARINING ZAMONAVIY BOSHQARUV USULI

Islomova Yulduz Nimatjonovna

Qashqadaryo viloyati Shahrisabz tumani 6-son DMTT direktori

Annatatsiya: Ushbu maqolada Maktabgacha ta'lim tashkilotlarini boshqarish va rejalashtirish bugungi kunning dolzarb vazifalaridan sanaladi. Maqolada maktabgacha ta'lim tashkilotlarida rahbarlik va boshqarishning yangi innovatsion usullari to'grisida fikrlar bildirilgan.

Аннотация: В данной статье управление и планирование организационного дошкольного образования рассматривается как одна из актуальных задач современности. В статье высказываются мнения о новых инновационных методах лидерства и управления в дошкольных образовательных организациях.

Annotation: In this article, management and planning of pre-school education organizations is considered one of the urgent tasks of today. The article expresses opinions on new innovative methods of leadership and management in preschool educational organizations.

Kalit so'zlar: rahbar, maktabgacha ta'lim tashkilotlari, boshqaruv, ta'lim tizimi, metodik boshqarish, innovatsion faoliyat, pedagogik jarayon.

Ключевые слова: лидер, дошкольные образовательные организации, менеджмент, образовательная система, методическое руководство, инновационная деятельность, педагогический процесс.

Key words: leader, preschool educational organizations, management, educational system, methodical management, innovative activity, pedagogical process.

Zamonaviy boshqaruv maktabgacha ta'limda nafaqat ta'lim sifatini oshiradi, balki bolalarning ma'naviy va intellektual rivojlanishi uchun keng imkoniyatlar yaratadi. Shu bilan birga, bu yondashuv milliy ta'lim tizimini dunyo andozalari bilan integratsiya qilishda muhim ahamiyatga ega.



Ta'limda boshqaruv – bu ta'lim jarayonini samarali tashkil qilish, uni rejalashtirish, nazorat qilish va rivojlantirishga qaratilgan strategiyalar, usullar va tamoyillar majmuasidir. Ta'limdagi boshqaruvning asosiy maqsadi – ta'lim jarayonining sifatini oshirish, ta'lim resurslaridan samarali foydalanish va barcha ishtirokchilar uchun qulay sharoit yaratishdir.

Zamonaviy boshqaruv – bu resurslarni samarali boshqarish va maqsadlarga erishishni ta'minlash uchun innovatsion usullar, texnologiyalar, va yondashuvlardan foydalanishga asoslangan boshqaruv tizimidir. Zamonaviy boshqaruv ko'proq natijadorlik, moslashuvchanlik va barqarorlikka qaratilgan bo'lib, u iqtisodiyot, ta'lim, sog'liqni saqlash, biznes va boshqa sohalarda qo'llaniladi.

Jumladan:

- ✚ strategik (yuqori maqsad) va taktik (bir yillik joriy maqsadlar, oylik vazifalar) rejalarning ustivorligi va ustunligi.
- ✚ strategik va taktik rejalarning ijtimoiy yo'naltirilganligi.
- ✚ rejalashtirish obektlari va ularning zahiralarini oqilona taqsimlash maqsadida ularning muhimligi bo'yicha ajratish.
- ✚ rejalarning mavjud moddiy shart-sharoitlarga mosligi.

Zamonaviy boshqaruvning asosiy maqsadi – tashkilotning umumiy maqsadlariga qisqa muddat ichida, minimal resurslar bilan, maksimal natijaga erishish va faoliyatni doimiy ravishda takomillashtirib borishdir.

Zamonaviy boshqaruvning asosiy yo'nalishlari:

1. Ta'lim sifatini oshirish

- O'quv va tarbiya jarayonlarini xalqaro standartlarga moslashtirish.
- Innovatsion va integrativ metodikalarni joriy etish (masalan, STEAM-ta'lim, o'yin orqali o'qitish).
- Kichik yoshdagi bolalar uchun qiziqarli va interaktiv muhit yaratish.

2. Raqamlashtirish va texnologiyalardan foydalanish

- Elektron kundalik va ta'lim monitoring tizimlarini tatbiq etish.
- Interaktiv doskalar, multimedia vositalari va ta'lim ilovalaridan foydalanish.
- Bolalarning rivojlanishini kuzatish va tahlil qilish uchun elektron platformalarni joriy etish.

3. Tarbiyachilarni rivojlantirish va motivatsiya qilish

- Pedagoglarning malakasini oshirish uchun zamonaviy trening va seminarlarni tashkil etish.
- Innovatsiyalarni qo'llab-quvvatlagan holda pedagoglarni rag'batlantirish.
- Jamoaviy ishlarni samarali yo'lga qo'yish.

4. Ota-onalar bilan hamkorlikni rivojlantirish

- Ota-onalarni ta'lim jarayoniga jalb qilish va ularning fikrlarini hisobga olish.
- Raqamli platformalar orqali ota-onalar bilan muloqotni kuchaytirish.
- Ta'lim muassasalarining ochiqligi va shaffofligini ta'minlash.

5. Boshqaruvning samaradorligini oshirish

- Resurslarni (moliyaviy, moddiy, insoniy) to'g'ri taqsimlash.
- Strategik rejalashtirish va ta'lim muassasasining rivojlanish rejalarini ishlab chiqish.

- Ta'lim jarayonining sifatini baholash tizimini joriy etish

Zamonaviy boshqaruv tamoyillarining afzalliklari:

- Bolalarning individual rivojlanishiga e'tibor qaratish.
- Tarbiyachilar va ota-onalar o'rtasida samarali muloqotni ta'minlash.
- Ta'lim sifatining xalqaro andozalar darajasiga mos kelishini ta'minlash.
- Bolalar uchun qulay va qiziqarli o'quv muhitini yaratish.

Zamonaviy boshqaruv maktabgacha ta'limni har tomonlama rivojlantirib, bolalar rivoji uchun mustahkam poydevor yaratadi va pedagoglar faoliyatini yangi darajaga olib chiqadi.

Pedagogik adabiyotlarda ta'lim tashkilotlarini boshqarish ancha to'liq va aniq



belgilab berilgan va tavsiflangan. Maktabgacha ta'limga kelsak, biz uni bir qismi deb hisoblaymiz mumkin. Demak, boshqaruv fanining barcha asosiy qoidalari, pedagogik menejment jumladan maktabgacha ta'lim tashkilotlarini boshqarish uchun ham qo'llaniladi. Shu bilan birga, maktabgacha ta'lim tizimining rivojlanish tarixining xususiyatlari va ko'p qirraliligi, ichki fazilatlarini va xususiyatlarini

ham maksimal darajada hisobga olish muhimdir. "Natijaga asoslangan boshqaruv" tushunchasining o'zi tashkilotning barcha a'zolari tomonidan belgilangan va kelishilgan natijalarga erishadigan boshqaruv va rivojlanish tizimi sifatida belgilanishi mumkin. Har bir rahbar o'z maktabgacha ta'lim muassasasini rivojlantirishning asosiy maqsadlarini belgilab, pedagogik jamoa bilan birgalikda butun pedagogik jarayonni tashkil qiladi, ya'ni u doimiy ravishda olingan natijalarni rejalashtirilgan natijalar bilan taqqoslaydi. Bu vaziyat bo'yicha aniq natijalar uchun tezkor qarorlar qabul qilishni talab qiladi. Natijaga asoslangan boshqaruv, dastlab jamoaga maqsadga erishish uchun barcha resurslar bilan ta'minlangan haqiqiy berilgan deb taxmin qilanadi. Bunday

resurslarga odamlar, vaqt, moliya, moddiy-texnika bazasi, texnologiyalar, usullar va boshqalar kiradi.

Ta'lim boshqaruvining muhim tamoyillari:

- **Demokratiklik:** Har bir ishtirokchining fikrini hisobga olish.
- **Moslashuvchanlik:** Muhitdagi o'zgarishlarga tezkor javob berish.
- **Natijadorlik:** Resurslardan maksimal samaradorlik bilan foydalanish.
- **Shaffoflik:** Jarayonlarning ochiqligi va oshkoraligini ta'minlash.

Ta'lim boshqaruvining maqsadi:

Ta'lim sohasidagi boshqaruvning asosiy maqsadi – jamiyatning ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy ehtiyojlarini qondiradigan ta'lim tizimini yaratish, yuqori malakali kadrlar tayyorlash va o'quvchilarga sifatli ta'lim imkoniyatlarini ta'minlashdir.

Ta'limda boshqaruv samarali tashkil etilganida, u butun tizimning rivojlanishiga, innovatsiyalarni kengaytirishga va ta'limning barqaror bo'lishiga xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytganda, Maktabgacha ta'limda zamonaviy boshqaruv usullarini joriy etish ta'lim sifatini oshirishda, bolalarning intellektual va ma'naviy rivojlanishida hal qiluvchi ahamiyatga ega. Rahbar xodimlarning texnologiyalarni qo'llashi, jamoani samarali boshqarishi va innovatsion yondashuvlarni tatbiq etishi ta'lim tizimini yangi bosqichga olib chiqadi. Shu sababli, zamonaviy boshqaruv usullarini o'rganish va amaliyotga tatbiq etish barcha rahbarlar uchun ustuvor vazifalardan biri hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 10 iyundagi PQ-5144-son qarori.
2. F.R.Qodirova, Sh.Q.Toshpo'latova, N.M.Kayumova, M.N.A'zamova Maktabgacha pedagogika T-"Ma'naviyat" 2018y.
3. Tretyakov P.I. "Maktabgacha ta'lim muassasasi: natijalarga ko'ra pedagogik jarayonni boshqarish", M., UTs "Perspektiva", 2010y.
4. Рахматуллаева, П. М., & Махкамova, М. А. (2022). Yoshlar ta'lim sifatini oshirishda motivatsiyaning o'rni yoxud ulkan maqsadlar sari dastlabki qadam. Central Asian Research Journal
5. Karimova N.Q "Maktabgacha ta'lim muassalari boshqaruvining dolzarb muammolari"3-4B(2021)

TA'LIM TIZIMI TAKOMILLASHTIRISHDA RAHBAR XODIMLARNING PEDAGOGIK JARAYONLARNI BOSHQARISHDAGI MULOQOT SHAKLI

Mamutova Svetlana Jumabaevna

*Qaraqalpog'iston Respublikasi Xo'jayli tumani
17- sonli KTIDMTT direktori*

Annatatsiya: ushbu maqolada barcha ta'lim tashkilotlarida xizmat yuritayotgan rahbar xodimlarning pedagogic jarayonlarni olib borishdagi muloqot shakli haqida ma'lumot berilgan.

Аннотация: в данной статье представлена информация о форме общения менеджеров, работающих во всех образовательных организациях при ведении педагогического процесса.

Abstract: This article provides information on the form of communication of managers working in all educational organizations during the pedagogical process.

Kalit so'zlar: rahbar, pedagog xodimlar, muloqot, muloqot shakllari, ijodiylik, boshqaruv, psixologik.

Ключевые слова: лидер, педагогический коллектив, общение, формы общения, творчество, управление, психологическое.

Key words: leader, teaching staff, communication, forms of communication, creativity, management, psychological.

Rahbarga xos muloqot – bu rahbarning xodimlar bilan o'zaro munosabatlarni tashkil etish, boshqaruv jarayonini samarali amalga oshirish, va jamoani maqsadga yo'naltirilgan tarzda boshqarish usulidir. Rahbarning muloqoti nafaqat tashkilotning muvaffaqiyatiga, balki xodimlarning ishga bo'lgan munosabatiga ham ta'sir qiladi. Samarali rahbar muloqoti o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lib, shu orqali u xodimlar bilan ijtimoiy aloqalarni, ish faoliyatini va tashkilotning umumiy atmosferasini yaxshilaydi.

Rahbarning samarali muloqot tamoyillari:

➤ **Aniqlik va tushunarlilik:** Muloqot davomida maqsad va vazifalar aniq va ravshan bo'lishi kerak.

➤ **Samimiylik:** Rahbar xodimlarga hurmat bilan yondashishi va ularning fikrlariga e'tibor qaratishi lozim.

➤ **Faol tinglash:** Xodimlarning mulohazalarini diqqat bilan tinglash va ularga munosabat bildirish.

➤ **Adolat va xolislik:** Har bir xodimga teng munosabatda bo'lish.

➤ **Bahs va tanqidni qabul qilish:** Rahbar konstruktiv tanqid va yangi g'oyalarga ochiq bo'lishi zarur.



Boshqaruv muloqotining Birinchi «qonuni»ga binoan, xodimlaringiz ishga vaqtida kelish, ishlash, ishni muddatida tugatishni bilishi kerak. Tushunish — ishni qabul qilish degani emas. Ishni siz kutganchalik bajarmayotgan xodim tushunmayotganidan emas, balki qabul qila olmayotganidan shunday bajaradi. Muammoni hal qilishda xodimning bajaragan ishiga qarshi bormasdan masalaga to'g'ri yondashish kerak. Amaliy tavsiyalar berish lozim. Chunki nima qilib bo'lsa ham xodimni bu ishni bajarishga rozi qilish kerak. Bu — ikkinchi qoida. Biz kimningdir ehtiyojini, talabini qondirish uchun ishlashimiz mumkin. Bu ishga qiziqish bo'lmasligi ham mumkin. Chunki bu ish rahbami qoniqtiradi. Rahbar ishni topshirayotganida xodimni qiziqtirishi kerak. Shaxsiy qiziqish bilan ishga doir qiziqish bir-biriga mos kelishi kerak. Rahbar xodimlarining psixologik xususiyatlarini yaxshi bilishi jamoa ishining rivojlanishiga olib keladi. Xodimga ish berishdan avval uning shu ishga qobiliyatini hisobga olib, uni shu ishni bajarishga ishontirib keyin topshirish kerak.

Rahbarning samarali muloqoti tashkilotga qanday ta'sir qiladi?

🌈 **Samaradorlik oshadi:** Yaxshi muloqot orqali rahbar xodimlarga to'g'ri yo'nalish beradi, ularning ish samaradorligini oshiradi.

🌈 **Motivatsiya va ishonch:** Samarali muloqot xodimlarning o'z ishlariga bo'lgan ishonchini oshiradi va motivatsiyani yuqori darajada ushlab turadi.

🌈 **Jamoaviy ishlar yaxshilanadi:** Ochiq va samimiy muloqot jamoa ruhini mustahkamlashga yordam beradi, bu esa barcha xodimlarning birgalikdagi ishlashini ta'minlaydi.

Rahbar umumiy kutubxonasi topshiriq (barcha uchun) bergandan ko'ra, shaxsiy (bir kishiga) topshiriq bersa, yaxshi natijaga erishishi mumkin. Boshqaruv muloqotining ikkinchi «qonuni» — boshqalar bilan teng sharoitda kishilar ishni tez qabul qiladilar, (ayniqsa o'zi yoqtiradigan kishidan) va aksincha, yoqtirmaydigan kishining topshirig'ini qiyinchilik bilan qabul qiladilar. Demak, kishilar uchun ish sharoitiga nisbatan ruhiy muhit yaxshi bo'lishi kerak. Shunday qilib, jamoada shaxslar bir-biriga nisbatan simpatiyaga ega bo'lsa ish yaxshi bo'ladi.

Demak, insonga murojaat qilishda uning ismini aytib chaqirish unda ijobiy hislami keltirib chiqaradi. Kishilarning ismini eslab qolish uchun uni bir necha marta

takrorlash muhim. Shuningdek, miyangizdagi shu ism bilan bog‘liq assotsiatsiyani yaratishga harakat qiling. Kechqurun yangi tanishlaringizning ismlarini bir necha marta takrorlang. Xodimlaringizni ismi bilan chaqirib murojaat qilishingiz ularda sizga bo‘lgan hurmatni orttiradi.

Muloqotning asosiy maqsadlari:

- **Axborot almashish:** Odamlar o‘rtasida ma’lumotlarni, fikrlarni va his-tuyg‘ularni etkazish.
 - **Tushunish:** Muloqotning maqsadi shundaki, bir shaxs boshqasining fikrini to‘g‘ri tushunishi va anglashi.
 - **Jamiyatda ijtimoiy aloqalar:** Muloqot odamlar o‘rtasida aloqalarni o‘rnatish va mustahkamlash uchun zarur.
 - **Emotsional aloqalar:** His-tuyg‘ularni ifodalash va boshqalarga etkazish.
- Ko‘pgina rahbarlar xodimlariga nisbatan xushomad qilishni bilmaydilar.**
- «Oltin so‘zlar» ni yani to‘g‘ri muloqot shaklini qo‘llash qoidalari:**
- «Bitta fikr» orqali xushomad qilish. Masalan, «sizni eshitish orqali sizning qobiliyatingizga tan berdim».
 - «Giperbola» xushomad qilish. Bunday xushomad kishining sifatini ozgina bo‘rttirib aytishdan iborat. Jumladan, «sizning tartibililigingizga men doimo tan beraman» — deydi rahbar o‘z xodimiga. Rahbar o‘z xodimlariga albatta xushomad qilib turishi kerak, shunda jamoada ruhiy muhit yaxshilanadi. Bu yerda attraksiyani shakllantirishning roli muhim.
 - «Qarashning yuqori bo‘lishi» — bu yerda kishining shaxsiy qarashi muhim rol o‘ynaydi. Xushomadga nisbatan uning fazilati o‘zi yuqori bo‘lishi mumkin. Masalan, fenomenal xotirasi yaxshi bo‘lsa-da, unga atrofdagilar «telefon raqamlarini darhol eslab qolganingizga tan beraman» desalar bu yuqori qarash.
 - «Tanbeharsiz» xushomad qilish. «Men sizning juda yaxshi xushomad qilishingizni eshitdim» — deb rahbar xodimiga aytsa u xafa bo‘lishi mumkin.
 - «Didaktikasiz» xushomad qilish. Bunday xushomad xodimning kelgusida o‘zini yaxshilashiga qaratilgan bo‘lmasligi kerak. Masalan, «Sen faol bo‘lishing kerak», «Erkak kishi qat’iyatli bo‘lishi kerak» qabilidagi xushomadlar.
 - «Qo‘shimchalarsiz» xushomad qilish. Masalan, «sen qo‘ling tilla, lekin tiling sening dushmaning». Demak, qo‘shimchalarsiz xushomad qilish lozim.



Rahbar uchun eng qiyin holat suhbatni boshqarib turish. Agar u xodimni tinglay olmasa, suhbatni ham boshqara olmaydi. Rahbar suhbatni boshlashdan awal xodimning kayfiyatini aniqlashi, oilaviy sharoitini so'rashi, keyin savol bilan murojaat qilishi lozim. Agar suhbatni buyruq berishdan boshlasa suhbat muvaffaqiyatli bo'lmaydi. Ayrim hollarda xodim bilan rahbar o'rtasida nizo kelib chiqishi mumkin. Sababi rahbar xodimlarga odob bilan murojaat qilmaydi.

Xulosa. Rahbarlikda texnik mahoratlarga ega bo'lish qiyin emas. Qiyini xodimlar bilan to'g'ri ishlash. Shu sababli rahbar har bir xodim bilan ishlayotganda to'g'ri qaror qabul qila olishi xodimla bilan nafaqat rahbar asosida balkim ular bilan yetakchi lider va inson sifatida ham aloqa o'rnatish lozim hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1.O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 16-dekabrda "Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risida" Qonuni.

2.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022-2026-yillarga mo'ljallangan yangi .O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-sonli Farmoni.

3.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-maydagi "O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PQ-4312-sonli Qarori.

4.O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 22- dekabrda "Maktabgacha ta'lim va tarbiyaning Davlat standartini tasdiqlash to'g'risida"gi 802-sonli Qarori

МАКТАБГАЧА YOSHDAGI BOLALARNING JISMONIY VA AQLIY RIVOJLANISHI

Aymuratova Jupargul Tileumuratovna

Annotatsiya: Ushbu maqolada maktabgacha yoshdagi bolalarning aqliy va jismoniy-fizologik rivojlanish xususiyatlari haqida ma'lumot berilgan.

Аннотация: В данной статье представлена информация об особенностях психического и физическое-физиологического развития детей дошкольного возраста.

Abstract.: This article provides information on the characteristics of mental and physical-physiological development of preschool children.

Kalit so'zlar: jismoniy rivojlanish, aqliy rivojlanish, bolalar, ta'limiy jarayon, fiziologik xususiyatlari, jismoniy faoliyat, aqliy faoliyat.

Ключевые слова: физическое развитие, умственное развитие, дети, учебный процесс, физиологические особенности, двигательная активность, умственная деятельность.

Key words: physical development, mental development, children, educational process, physiological characteristics, physical activity, mental activity.

Maktabgacha yosh bolalar rivojlanishining o'ziga xos davri bo'lib, bu davrda ularning jismoniy va aqliy o'sishi faol sur'atlarda amalga oshadi. Ushbu davr bolaning kelgusidagi rivojlanishi uchun asos bo'lib, uning individual qobiliyatlari va ijtimoiy ko'nikmalari shakllanadi. Ushbu maqolada maktabgacha yoshdagi bolalarning jismoniy va aqliy rivojlanishi, bu jarayonning o'ziga xos jihatlari hamda ota-onalar va tarbiyachilarning roli yoritiladi.

Bu to'g'ri holatga hissa qo'shadi, ammo siz o'tirgan mashqlar, ovqatlanish paytida va uyqu paytida tananing holatini doimiy ravishda kuzatib borishingiz kerak, chunki umurtqa pog'onasi, bosh, elkama-kamar va tos suyaklari holatining konfiguratsiyasi nihoyat. faqat 14 yoshda shakllangan. Agar ota-onalar erta yoshdan boshlab jismoniy rivojlanishga ko'proq e'tibor berishsa, u holda tananing yurak-qon tomir va asab tizimlarining ko'rsatkichlari yaxshilanadi. Tez-tez yurish, ochiq o'yinlar va jismoniy tarbiya paytida maktabgacha yoshdagi bolalarning nafas olish funktsiyasi kuchayadi.

Bolalarning jismoniy va aqliy rivojlanishi: Bolalarning faolligi va harakatchanligi nafaqat atrofdagi dunyoni bilishga, balki aqliy rivojlanishiga ham hissa qo'shadi. Axir, har qanday tadqiqot harakat bilan bog'liq. Tug'ilgandan boshlab, chaqaloq narsalarni tekshiradi, qo'llari bilan tegizadi, ularni barmoqlari bilan his qiladi, og'ziga o'yinchoqlar oladi. Ko'zlarning, tilning harakatlari, kosmosdagi narsalarning harakati - bularning barchasi bolaning atrofidagi dunyo haqidagi birinchi g'oyalarini

shakllantiradi. Bolaning harakatlari haqidagi ma'lumotlar nerv tolalari bo'ylab miyaga boradi va u erda qayta ishlanadi. Bolaning harakatlari qanchalik rivojlangan bo'lsa, uning aqliy rivojlanish ko'rsatkichlari shunchalik yuqori bo'ladi. Bola ob'ektlar harakatining ketma-ketligi va tezligini idrok etadi, eslab qoladi va tanish operatsiyalarni takrorlashga harakat qiladi.

Jismoniy rivojlanishning o'ziga xos xususiyatlari

Maktabgacha yosh (3–7 yosh) bolalarning jismoniy rivojlanishi organizmning umumiy shakllanishi bilan bog'liq. Bu jarayon quyidagi o'ziga xosliklar bilan ajralib turadi:

1. Tana tuzilishi va harakatlarining takomillashuvi

➤ Bolaning suyak-mushak tizimi tez shakllanadi. Ular yugurish, sakrash, muvozanatni saqlash kabi murakkab harakatlarni bajara boshlaydilar.

➤ Bolaning mayda motorikasi rivojlanadi: chizish, rasm solish, qurilish o'yinchoqlari bilan o'ynash qobiliyatlari yaxshilanadi.

2. Jismoniy faollikning ortishi

➤ Bolalar ko'p harakat qilishni yaxshi ko'radilar. Bu ularning jismoniy sog'lomligini ta'minlaydi va mushaklarning rivojlanishiga yordam beradi.

➤ Ushbu yoshda bolalarning energiyasi yuqori bo'lib, ular kuniga bir necha soat faol o'yinlarda qatnashishni talab qiladilar.

3. Immunitet tizimining shakllanishi

➤ Bu davrda bolalar organizmi atrof-muhit ta'sirlariga moslashadi. Ularning immunitet tizimi mustahkamlanadi, ammo virus va bakteriyalarga nisbatan sezgirlik yuqori bo'lib qoladi.

Jismoniy faoliyat: Bolalar bog'chasida har kuni ertalabki mashqlarni, uyqudan keyin gimnastikani amalga oshiradilar. Jismoniy tarbiya darslari haftada ikki marta o'tkaziladi. Har kuni bolalar turli xil ochiq o'yinlar va estafeta poygalarini o'ynashadi. Bundan tashqari, bolaning jismoniy rivojlanishi piyodalar o'tish joylari, ekskursiyalar, jismoniy tarbiya o'yin-kulgilari paytida amalga oshiriladi. Harakatchanligi past bo'lgan har bir darsning o'rtasida ular jismoniy tarbiya daqiqalarini o'tkazishadi. Bu sizning orqa mushaklaringizdan kuchlanishni bo'shatadigan kichik isinishdir. Mashqlar bolalarning yosh xususiyatlarini, ularning jismoniy tayyorgarligini hisobga olgan holda tanlanadi, kompleks asta-sekin kengayadi, takrorlash soni ortadi. Maqolaning matnidan ko'rinib turibdiki, bolaning erta jismoniy rivojlanishi maktabda keyingi ta'lim uchun zarur bo'lgan harakat qobiliyatlarini shakllantirishga

yordam beradi va tanani yangi sharoitlarga moslashtiradi. Jismoniy rivojlanishga va uyda etarlicha e'tibor bering!

Bolaning aqliy va jismoniy qobiliyatlari, uning maqsad va orzulari - bularning barchasi bolalikdan boshlanadi. Agar biz boladan muvaffaqiyatli va o'zini o'zi ta'minlaydigan inson yetishib chiqishini istasak, unga kuchli va muvaffaqiyatli boshlash kerak. Bolaning aqliy rivojlanishi, bolaning sog'ligi ovqatlanish va turmush tarziga bog'liq bo'lganidek, bizning intellektual rivojlanish darajasi ham bolalikdagi qanday o'rganishimizga bog'liq. Inson miyasi hayot davomida rivojlanadi. Bachadonda shakllanishni boshlab, bola tug'ilgandan keyin ham o'sishda va rivojlanishda davom etadi. Kichkina odamning miyasida tug'ilgandan keyin o'zgarishlar yuz beradi, bu uning keyingi rivojlanishiga ta'sir qiladi. Miyaning o'sishi bilan uning hujayralari o'rtasida aqliy rivojlanish bilan bog'liq bo'lgan aloqalar paydo bo'ladi.



Bolalarning aqliy faoliyati - bu umumiy ham maxsus aqliy harakatlar xilma-xil sistemalarning katta miqdoridir. Ko'pgina vazifalarni hal etishda qo'llaniladigan keng ko'lamdagi aqliy harakatlarni shakllantirish ayniqsa muhimdir. Bunday harakatlarga tahlil, qiyoslash, umumlashtirish kiradi. Maktabgacha

yoshdagi bolalar xilma-xil faoliyatlar orqali o'z aqliy faoliyatlarini o'stirib boradilar. Masalan, o'yin orqali, xorijiy tillarni o'rganish orqali, jamoat tadbirlarida qatnashish orqali, turli xil mashg'ulotlar va to'garaklar orqali va hokazolar. Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarga aqliy tarbiya berishni to'g'ri tashkil etish uchun ularning aqliy rivojlanish qonuniyatlari va imkoniyatlarini bilish kerak. Ayni maktabgacha yoshdagi bolalar qiziquvchan va intiluvchan bo'ladi. Ularning aqliy faoliyatini yanada boyitish maqsadida xorijiy tillarni bosqichma-bosqich o'rgatib borish juda yaxshi natija beradi. Ularda til ko'nikmalarini shakllantirish aqliy salohiyatini ham boyishiga olib keladi.

Tarbiyachilar va ota-onalarning roli

Maktabgacha yoshdagi bolalarning jismoniy va aqliy rivojlanishida katta yoshdagilarning ta'siri muhim ahamiyatga ega. Tarbiyachilar va ota-onalar quyidagilarni hisobga olishlari lozim:

- Bolalarning qiziqishlariga mos o'yinlarni tashkil qilish.
- Ularning savollariga javob berish orqali bilimlarini kengaytirish.
- Sog'lom ovqatlanish va muntazam jismoniy mashg'ulotlarni tashkil etish.
- Ijodiy faoliyatga sharoit yaratish va ularga rag'bat berish.

Maktabgacha yoshdagi bolalarda aqliy rivojlanishning samarali kechishi uchun to'g'ri usul va uslublardan foydalanish lozim. Mobil vositalardan juda ko'p va

nazoratsiz foydalanish ularda aqliy salohiyatni sezilarli darajada susaytiradi. Buning o'rniga ota-onalar ular uchun foydali bo'lgan kitoblardan foydalanishi yoki xorijiy tilda oid bo'lgan ko'rsatuv va multfilmlarni tomosha qilishlari uchun sharoit yaratishi lozim. Bundan tashqari MTT larning o'zida mashg'ulot jarayonida yoki to'garaklar tashkil qilish orqali ham bolalarga ingliz tilini o'rgatishimiz mumkin.

Xulosa shuki: Maktabgacha yosh bolalarning jismoniy va aqliy rivojlanishi bu davrda atrof-muhitdan olingan bilimlar va tajribalar bilan chambarchas bog'liq. Bolalarning bu davrdagi rivojlanish xususiyatlarini hisobga olgan holda tarbiyalash, ularga ijobiy ta'sir ko'rsatadi va kelajakda muvaffaqiyatli shaxs sifatida shakllanishiga zamin yaratadi. Shu sababli, ota-onalar va tarbiyachilar bolalarning jismoniy sog'lig'ini va intellektual qobiliyatlarini rivojlantirish uchun mas'uliyatni his qilishlari zarur.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 9 sentyabrdagi «Maktabgacha ta'lim tizimini tubdan takomillatirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PQ-3261-son qarori.
2. Maktabgacha ta'lim muassasalari tarbiyalanuvchilari va boshlang'ich maktab o'quvchilariga chet tilini o'rgatishda o'yinlar. Baxramova M. D. Tuzuvchi: Baxramova M. D., T.2016.
3. A.K.Xamrayevna . Maktabgacha yoshdagi bolalarga talim-tarbiya berishda innovatsion texnologiyalarini qollash asosida bolalarning ijodiy faolligini oshirish samaradorligi // - Innovation in the modern education system, 2023.-B.62-66
4. K.X Allaberdieva.Maktabgacha katta yoshdagi bolalarda ijodiy faollikni shakllantirishning neyropedagogik imkoniyatlari // Innovatsii v pedagogike i psixologii, 2020. SI-2№ 3

O'ZBEK ADABIY TILI ME'YORLARI

*Hafizova Lola Hamza qizi**Buxoro davlat pedagogika instituti**Tillar fakulteti xorijiy til va adabiyoti**ta'lim yo'nalishi 1-bosqich talabasi*

Annotatsiya: Mazkur tezisdagi o'zbek va ingliz tillarida qo'llaniladigan maqollar hamda tarixiy va arxaik so'zlar tahlil qilingan. Ushbu maqollar o'ziga xos milliy qadriyatlarni, madaniy tafakkur va xalqning dunyoqarashini ifodalovchi lingvistik birliklar sifatida ko'rib chiqiladi. Tarixiy-arxaik so'zlar esa o'zbek va ingliz tillarining rivojlanish tarixini, o'tmishdagi ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy sharoitlarni aks ettiradi. Ushbu so'zlar tilning tarixiy qatlamlarini anglashda muhim vosita bo'lib, ular yordamida o'tmishdagi hayot, qadriyatlar va madaniyat haqida kengroq tasavvur hosil qilish mumkin. Tesis natijalari o'zbek va ingliz tillari o'rtasidagi madaniy muloqotni chuqurroq tushunishga hissa qo'shishi kutilmoqda.

Kalit so'zlar: me'yorlashtirish, sintaktik me'yor, o'zbek tili didaktikasi, leksik me'yor, adabiy tilning rivojlanishi, tildagi ifoda vositalari, o'zbek adabiy tili

Har bir xalqning milliy madaniyati, urf-odatlar va qadriyatlari uning tili orqali o'z aksini topadi. Xususan, maqollar tilning boyligini va xalqning o'ziga xos tafakkur tarzini ifodalovchi qadimiy nutq birliklari hisoblanadi. Mazkur tadqiqotda o'zbek va ingliz maqollarining tuzilishi va mazmuni o'rtasidagi o'xshashlik va farqlar o'rganiladi. Maqollarning har ikkala tildagi tarjimasi orqali o'xshash g'oyalarni ifodalash usullari tahlil qilinib, ularning ikki madaniyat o'rtasidagi o'ziga xosliklari aniqlanadi. Bu tadqiqot ikki xalqning til boyligi va ma'naviy merosini yanada chuqur anglashda muhim ahamiyatga ega bo'lishi mumkin.

1. O'zbekcha: "Bugungi ishni ertaga qo'yma."

Inglizcha: "Don't put off until tomorrow what you can do today."

Izoh: Har ikki maqol vaqtni tejash va ishlarni kechiktirmaslik haqida nasihat beradi. O'zbekcha va inglizcha variantlarda bir xil mazmun anglashiladi.

2. O'zbekcha: "Chumchuq so'ysa ham, qassob so'ysin."

Inglizcha: "Leave it to the professionals."

Izoh: Ikkala maqol ham ishni o'z sohasining ustalariga topshirish zarurligini ta'kidlaydi.

3.O‘zbekcha: "Olma pish, og‘zimga tush."

Inglizcha: "Don't wait for things to fall into your lap."

Izoh: Bu maqollar inson harakat qilmasdan o‘z-o‘zidan biror natijaga erisha olmasligini eslatadi.

4.O‘zbekcha: "Harakatda barakat."

Inglizcha: "Where there's a will, there's a way."

Izoh: Har ikki maqol muvaffaqiyatga erishish uchun intilish va mehnat qilish kerakligini ta’kidlaydi.

5.O‘zbekcha: "Tosh otgan bilan tosh otma."

Inglizcha: "Turn the other cheek."

Izoh: Bu maqollar qasos olish o‘rniga sabr qilishni va yaxshilik bilan yomonlikka javob qaytarishni tavsiya qiladi.

6.O‘zbekcha: "Ko‘p qatori ko‘r bo‘lgandan, yakka yo‘lni tanlaganing yaxshi."

Inglizcha: "Better to walk alone than with a crowd going in the wrong direction."

Izoh: O‘z yo‘lingdan borish, o‘z qoidangni saqlash muhimligini ta’kidlaydi.

7.O‘zbekcha: "Suv kelguncha, ko‘lmakning qadri."

Inglizcha: "Make do with what you have."

Izoh: Bu maqol mavjud imkoniyatlardan foydalanishni va shukronalikni bildiradi.

8.O‘zbekcha: "Ustiga chiqqaningda bilasan, otning qanchalik balandligini."

Inglizcha: "You don't know the burden until you carry it."

Izoh: Bu maqol biror ishning qiyinligini uni o‘z boshidan o‘tkazgan odamgina to‘liq his qilishini anglatadi.

9.O‘zbekcha: "Erta turgan yutadi."

Inglizcha: "The early bird catches the worm."

Izoh: Ikkala maqol ham ertalab turib, ishlarni vaqtida bajarishning afzalligini bildiradi.

10.O‘zbekcha: "Bir qozonda ikki bosh qaynamas."

Inglizcha: "Two captains will sink the ship."

Izoh: Har ikki maqol boshqaruvda ikki kishining bo‘lishi mojarolarga olib kelishi mumkinligini ifodalaydi.

11.O'zbekcha: "Devorning qulog'i bor."

Inglizcha: "Walls have ears."

Izoh: Ikkala maqol ham yashirin gap-so'zlarni atrofdagilar eshitishi mumkinligini, ehtiyot bo'lish kerakligini bildiradi.

12.O'zbekcha: "Toqqa chiqsa toyilmog'i bor."

Inglizcha: "The higher you climb, the harder you fall."

Izoh: Ikkala maqol ham odam yuksak marralarni ko'zlasa, xavflarni ham e'tiborga olish kerakligini anglatadi.

13.O'zbekcha: "O'tgan ishga salovot."

Inglizcha: "Let bygones be bygones."

Izoh: Bu maqol o'tmishdagi yomon voqealarni unutish, kechirish va kelajak haqida o'ylashga chaqiradi. O'tmishda qolgan xatolardan achinib yurish emas, balki kelajak uchun harakat qilish kerak.

14.O'zbekcha: "Sabrning tagi – sariq oltin."

Inglizcha: "Patience is a virtue."

Izoh: Bu maqol sabr-toqatning qimmatbaho ekanligini bildiradi. Agar odam sabr qilsa, oxir-oqibat mukofotini oladi, ya'ni muvaffaqiyatga erishadi.

15.O'zbekcha: "Baliq boshidan sasiydi."

Inglizcha: "A fish rots from the head down."

Izoh: Rahbar yoki liderning kamchiliklari butun tashkilot yoki jamiyatning muvaffaqiyatsizligiga olib kelishi mumkinligini ifodalaydi. Agar bosh yaxshi bo'lmasa, qolgan qism ham yaxshi ishlamaydi.

16.O'zbekcha: "Bog'bon qanchalik mehnat qilsa, meva shunchalik shirin bo'ladi."

Inglizcha: "The harder you work, the sweeter the reward."

Izoh: Mehnatning ahamiyatini ko'rsatadi. Natija qanchalik zo'r bo'lsa, u mehnatning shuncha ko'p bo'lishi bilan bog'liq.

Endi o'zbek va ingliz tilidagi tarixiy hamda arxaik so'zlarga to'xtalsak. Tarixiy va arxaik so'zlar tilning qadimiy qatlamlarini, o'tmish madaniyatini hamda xalqning hayot tarzi va dunyoqarashini o'zida ifodalaydi. O'zbek tilidagi tarixiy va arxaik so'zlar orqali biz o'zbek xalqining qadimiy madaniyati va o'tmish hayotidan ko'plab ma'lumotlarga ega bo'lamiz. Ingliz tilida ham tarixiy va arxaik so'zlar mavjud bo'lib, ular o'tmish davrlarning lingvistik boyligini aks ettiradi.

1. O‘zbekcha (tarixiy): Jarchi

Hozirgi: Xabar yetkazuvchi yoki elchi

Inglizcha: Herald, messenger

Izoh: "Jarchi" qadimiy davrlarda xabar yetkazuvchi shaxs sifatida qo‘llanilgan.

Hozirda "xabar yetkazuvchi" yoki "elchi" degan so‘zlar bilan almashtirilgan.

2.O‘zbekcha (tarixiy): Furqat

Hozirgi: Xayrlashuv yoki ayriliq

Inglizcha: Farewell, parting

Izoh: "Furqat" so‘zi ayriliq yoki xayrlashuv ma’nosini anglatgan. Hozirgi tilimizda bu so‘z "xayrlashuv" yoki "ayriliq" deb qo‘llaniladi.

3.O‘zbekcha (tarixiy): Navkar

Hozirgi: Askar yoki soldat

Inglizcha: Soldier

Izoh: "Navkar" so‘zi eski zamonlarda askar yoki xizmatkorga nisbatan ishlatilgan bo‘lsa, hozir bu so‘z "askar" yoki "soldat" deb aytiladi.

4.O‘zbekcha (tarixiy): Mulozim

Hozirgi: Xodim yoki xizmatkor

Inglizcha: Servant, attendant

Izoh: "Mulozim" so‘zi tarixiy davrlarda xizmat qiluvchi, xizmatkor yoki yordamchi shaxs ma’nosini anglatgan. Hozirda "xodim" yoki "xizmatkor" so‘zlari bilan almashtirilgan.

5.Dargoh

Hozirgi qo‘llanilishi: Asosan diniy yoki tarixiy joylar nomini ifodalaydi.

Inglizcha: Shrine / Holy Place

Izoh: "Dargoh" so'zi qadimda muqaddas joy, ziyoratgoh yoki ilohiy shaxslar yashagan joy sifatida ishlatilgan. Hozirgi vaqtda ham ziyorat qilish joylari uchun ishlatiladi.

6.Sipoh

Hozirgi qo‘llanilishi: Endi kam qo‘llaniladi, lekin tarixiy romanlarda yoki harbiy istiloh sifatida uchraydi.

Inglizcha: Army / Soldier

Izoh: Bu so'z tarixiy davrlarda harbiy kuch yoki askarni anglatgan. Hozirgi kunda esa asosan tarixiy asarlarda qo‘llaniladi.

7. Begim

Hozirgi qo'llanilishi: Ayol zodagonlarga nisbatan ishlatiladi, ko'pincha tarixiy shaxslarni ta'riflash uchun.

Inglizcha: Lady / Noblewoman

Izoh: Bu so'z tarixda amaldagi yoki hukmron oilaning ayol a'zolarini, xususan, zodagon ayollarni anglatgan. Hozirda faqat tarixiy asarlar va nomlar uchun ishlatiladi.

8. Saroy

Hozirgi qo'llanilishi: Asosan davlat yoki hukumat idorasi binosini bildiradi (masalan, "Oq Saroy").

Inglizcha: Palace

Izoh: Ilgari "saroy" so'zi hukmdorlar yashaydigan qasr yoki hukumat qarorgohini anglatar edi. "Saroy" so'zi hozirgi kunda ham ishlatiladi, lekin keng ma'noda davlat idoralari yoki hashamatli binolarni ifodalaydi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, o'zbek va ingliz tillaridagi maqollar va tarixiy-arxaik so'zlarni o'rganish, til va madaniyat o'rtasidagi o'xshashliklar va farqlarni aniqlashga yordam beradi. Bu tadqiqotlar ikki tilni o'rganishda va ikki xalqning madaniy merosini chuqurroq tushunishda muhim rol o'ynaydi. Shuningdek, ular xalqaro aloqalar, tilshunoslik va madaniyatlararo muloqotning rivojlanishiga katta hissa qo'shadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Sayfullayeva R.R, Mengliyev B.R, Boqiyeva G.H, Qurbonova M.M, Yunusova Z.Q, Abuzalova M.Q. - Hozirgi O'zbek adabiy tili-, Toshkent "2010.
2. T.X Xolmatov- O'zbek tilida tasviriy sanat va stilistika, "Fan" 2005.
3. John R. Taylor- Cognitive Grammar: A basic introduction, "Oxford University Press",

O'ZBEK HAMDA INGLIZ TILLARIDAGI MAQOLLARNING QIYOSIY TAVSIFI

Sharifova E'zozabonu Elyor qizi

*Buxoro Davlat pedagogika institute xorijiy til va
adabiyoti ta'lim yo'nalishi 1-kurs talabasi*

Anotatsiya: Bu ro'yxat ingliz va o'zbek tillaridagi mashhur maqollardan iborat bo'lib, har bir maqolning ma'nosi va tarjimasi keltirilgan. Maqollar turli milliy madaniyatlarda o'xshash g'oyalarni ifodalaydi va insonlarga hayotiy saboqlar beradi. Ular turli vaziyatlarda donolik va hayotiy tajribaga asoslangan qimmatli maslahat sifatida xizmat qiladi. Ushbu maqollar, avloddan-avlodga o'tib kelgan hikmatlar bo'lib, insonlar uchun doimiy motivatsiya va yo'l-yo'riq manbai bo'lib qolmoqda.

Kalit so'zlar: maqollar, ingliz va o'zbek maqollari, hayotiy saboqlar, madaniyatlararo hikmat, donolik va tajriba, qadriyatlar

O'zbek tili ham ingliz tili ham o'zining boy tili bilan dunyoga mashhur. Xalq maqollari esa ikki tilni ham bezovchi ajoyib bir bezak. Yuqorida keltirib o'tgan maqollarim azaldan xalqlarning bir-biri bilan do'stlik munosabatlari borligini ko'rsatadi.

Maqollar — xalq og'zaki ijodining qisqa, mazmunli va hikmatli ifodalardan iborat shaklidir. Ular asrlar davomida xalq tajribasi, dunyoqarashi va hayotiy tushunchalarining yig'indisi sifatida shakllangan. Maqollarda odatda tarbiya, axloq, donolik, mehnatsevarlik, do'stlik, sabr-toqat kabi mavzular yoritiladi va hayotiy saboqlar beriladi. Maqollar qisqa va ixcham bo'lib, oddiy tilda aytilsa-da, ular chuqur ma'no va hikmatni o'zida jamlaydi.

Maqollarning xususiyatlari

Qisqalik va ixchamlik: Maqollar qisqa va yodda saqlash uchun oson bo'lgan shaklda tuzilgan. Bu ularni kundalik hayotda ishlatishga qulay qiladi.

O'xshatish va tashbehlilik: Maqollarda tez-tez boshqa narsalarga o'xshatish orqali ma'no beriladi. Masalan, “Arslon o'z kuchiga ishonsa, maymun o'z daraxtiga ishonadi” maqolida arslon va maymun orqali kuch va imkoniyat tasvirlangan.

Maqollar, avvalo, xalqning ma'naviy merosi sifatida axloqiy saboqlarni berish, bilim va tajriba o'rgatish, insonni hayot sinovlariga tayyorlash, unga sabr-toqat va kuch bag'ishlash vazifasini bajaradi. Bundan tashqari, maqollar odamlar o'rtasida o'zaro tushunishni osonlashtiradi, chunki ular qisqa va esda qoladigan hikmatli gaplar sifatida muloqotni boyitadi.

Maqollar turli xalqlarda deyarli bir xil mazmun va hikmatga ega bo'lib, ular milliy madaniyat, turmush tarzi va xalqning dunyoqarashi bilan chambarchas bog'liqdir. Shu bois, har bir xalqda o'ziga xos va milliy ruhiyatni aks ettiruvchi maqollar mavjud.

O'zbekcha va inglizcha maqollar:

1. O'zbekcha: Sabrning tagi sariq oltin. Inglizcha: Patience brings fruit.
 2. O'zbekcha: Arslon o'z kuchiga ishonsa, maymun o'z daraxtiga ishonadi. Inglizcha: The lion relies on its strength, the monkey on its tree.
 3. O'zbekcha: Yaxshilik qil, dengizga tashla. Inglizcha: Do good and throw it into the sea.
 4. O'zbekcha: Qars ikki qo'ldan chiqadi. Inglizcha: A stone cannot break without hitting another stone.
 5. O'zbekcha: Niyat- tilakning barakasi. Inglizcha: Good deeds are the blessings of wishes.
 6. O'zbekcha: Chumchuq so'ysa ham, qassob so'ysin. Inglizcha: Even if a sparrow is slaughtered, let it be done by a butcher.
 7. O'zbekcha: Ko'p eshit, kam gapir. Inglizcha: Listen more, speak less.
 8. O'zbekcha: Er yigitlik - sabr bilan. Inglizcha: Manliness lies in patience.
 9. O'zbekcha: Oltin changda yotib, zanglamas. Inglizcha: Gold doesn't rust, even if it lies in dust.
 10. O'zbekcha: Bir bolani ming qilsang, ming balo boshiga. Inglizcha: If you spoil one child, a thousand troubles will come.
 11. O'zbekcha: Yazshilikni faqat Xudo biladi. Inglizcha: Only God knows the goodness.
 12. O'zbekcha: Til bilgan-el biladi. Inglizcha: Who knows the language, knows the people.
 13. O'zbekcha: Ko'p bosgan ko'prik yiqilmaydi. Inglizcha: A frequently trodden bridge doesn't fall.
 14. O'zbekcha: Harakatda barakat. Inglizcha: There is blessing in movement.
 15. O'zbekcha: Bir o'ylab, ikki o'lchab, bir kes. Inglizcha: Think once, measure twice, cut once.
 16. O'zbekcha: Ko'pga qarash - aqlning belgisi. Inglizcha: Respecting the majority is a sign of wisdom.
 17. O'zbekcha: Do'st bilan musofir yurt ham oson. Inglizcha: With a friend, even a foreign land feels easy.
- O'zbek va ingliz tillaridagi maqollar orasida umumiy mazmun bir-biriga yaqin bo'lsa-da, har bir madaniyat o'ziga xos so'z va obrazlardan foydalanadi.
18. O'zbekcha: Birovga quduq qazisang, o'zing tushasan. Inglizcha: If you dig a well for someone, you may fall into it yourself.

19.O'zbekcha: Baliq boshidan sasiydi. Inglizcha: A fish starts rotting from the head.

20.O'zbekcha: Do'stning qadrini yo'qotganda bilasan. Inglizcha: You realize a friend's worth when you lose them.

21. O'zbekcha: Kishi dushmandan emas, do'stdan qo'rqsin. Inglizcha: Fear not the enemy, but the friend.

22. O'zbekcha: Oz bo'lsa ham, soz bo'lsin. Inglizcha: Better small but good.

23. O'zbekcha: Yovqur do'stning yarasi ko'p bo'ladi. Inglizcha: A brave friend bears many scars.. O'zbekcha: Bilim — oltin, ta'lim — kalit. Inglizcha: Knowledge is gold, learning is the key.

24. O'zbekcha: O'g'ri o'g'rini o'ldirmaydi. Inglizcha: A thief doesn't kill another thief.

25. O'zbekcha: Qush tilini qush biladi. Inglizcha: Only a bird understands a bird's language.

26.O'zbekcha: Yetti o'lchab, bir kes. Inglizcha: Measure seven times, cut once.

27.O'zbekcha: Temirni qizig'ida bos. Inglizcha: Strike the iron while it's hot.

Xulosa:

Ingliz va o'zbek tillaridagi maqollar insoniyat tajribasi va madaniy qadriyatlarning umumiylik va o'xshashliklarini ko'rsatadi. Ular hayotga teran qarash, harakatning ahamiyati, iroda kuchi, do'stlikning qadr-qimmati kabi mavzularni ifodalaydi. Bu maqollar turli vaziyatlarda odamlarga yo'l-yo'riq ko'rsatadi, ularni motivatsiya qiladi va o'z qarorlarini ongli ravishda qabul qilishga undaydi. Shu bilan birga, turli xalqlar madaniyati o'rtasida do'stlik va o'zaro tushunishni mustahkamlaydi. Maqollar zamon o'tgan sari ham o'z ahamiyatini yo'qotmay, insonlarga hayotiy saboqlar beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Karimov, A. (2009). O'zbek xalq maqollari. Toshkent: O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi nashriyoti.

Ushbu kitobda o'zbek xalq maqollari va ularning tushuntirishlari to'plangan.

2. Merriam-Webster Dictionary of Proverbs (1999). Springfield, MA: Merriam-Webster, Incorporated.

Ingliz tilidagi maqollar va ularning izohlarini o'z ichiga oladi.

3. Ro'ziyev, M. (2015). Xalq maqollari va ularning ma'nosi. Toshkent: Ma'naviyat. Ushbu kitob o'zbek xalq maqollari haqida chuqurroq tushuncha beradi.

4. Speake, J. (2008). The Oxford Dictionary of Proverbs. Oxford: Oxford University Press.

Ingliz tilidagi mashhur maqollar va ularning izohlarini taqdim etadi.

5. Saidov, I. (2011). O'zbek va xalq maqollari taqqoslanuvchi tadqiqoti. Toshkent: Fan va texnologiya.

О‘ЗBEK VA INGLIZ TILIDAGI MA’NOSI BIR-BIRIGA O‘XSHASH MAQOL HAMDA IBORALARNING TAHLILI

Shokirova Mohinur Murod qizi

*Buxoro davlat pedagogika institute Tillar fakulteti xorijiy til va
adabiyoti ta’lim yo’nalishi 1-kurs talabasi*

Annotatsiya: Mazkur maqolada o‘zbek tili maqollari va ularning ingliz tilidagi ma’nodoshlari qiyosiy tahlil qilinadi.. Qiyosiy tahlil orqali ikki tilda uchraydigan umumiy tushuncha va qadriyatlar aniqlanib, ularning turli ifoda shakllaridagi o‘ziga xos jihatlari ko‘rsatib beriladi. Ushbu izlanish natijalari lingvistik, tarjimashunoslik va madaniyatshunoslik sohalarida qiziqarli va foydali bo‘lishi kutilmoqda.

Kalit so‘zlar: maqol, ibora, fraza, ma’no, maqsad, ta’limot, ,tarjima, hikmat, xalq ijodi, talqin, misol, og‘zaki ijod namunasi

Maqollar – bu qadimdan xalq og‘zaki ijodi sifatida shakllangan va hayot tajribasidan olingan, qisqa, o‘zgarmas, umumiy ahamiyatga ega bo‘lgan iboralardir. Maqollar ko‘pincha doimiy haqiqatlarni, axloqiy va madaniy qadriyatlarni, hayotiy saboqlarga oid fikrlarni ifodalaydi. Ular, odatda, tasavvurga tayanadi va biror voqea yoki hodisaga umumiy nuqtai nazar beradi.

Maqollar ko‘pincha bolalarga axloqiy va ijtimoiy qadriyatlarni o‘rgatishda ishlatiladi. Ular odamlarni yaxshilikka, mehnatsevarlikka, adolatga va boshqa muhim qadriyatlarga yo‘naltiradi. Maqollar ijtimoiy qadriyatlarning ifodasi bo‘lib, ular jamiyatda boshqalarga o‘rnak bo‘lish, tarbiya va axloqiy hikmatlarni etkazish uchun ishlatiladi.

Maqollar nafaqat hayotiy saboqlarni taqdim etadi, balki odamlarni an‘analariga va madaniyatiga hurmat ko‘rsatishga chaqiradi. Ular til va madaniyatni saqlash, avloddan avlodga o‘tkazishning muhim vositasi hisoblanadi.

Maqollarning xususiyatlari:

1. Qisqalik va aniq ma’no: Maqollar ko‘pincha qisqa va tushunish oson bo‘ladi. Ular ma’lum bir voqea yoki hodisa haqida katta hikoya qilish o‘rniga, bir nechta so‘z bilan uning mohiyatini ifodalaydi.

2. Hayotiy tajriba: Maqollar xalqning uzoq vaqt davomida yig‘ilgan tajribasini o‘z ichiga oladi. Ular odatda insonlarning kundalik hayotidagi muhim saboqlarni ta’kidlaydi.

3. Axloqiy saboqlar: Ko‘plab maqollar, axloqiy yoki ma’naviy qadriyatlarni targ‘ib qiladi. Ular insonlarga to‘g‘ri va aniq qarorlar qabul qilishda yordam berishi mumkin.

4. Keng qo'llanilish: Maqollar har bir til va madaniyatda mavjud bo'lib, ular hayotning turli jabhalariga doir fikrlarni ifodalaydi.

1. **Ikka kemani ushlagan g'arq bo'ladi.** Maqolning ma'nosi shuki, agar odam bir vaqtning o'zida ikkita yoki undan ortiq masalani yoki maqsadni o'z zimmaga olishga harakat qilsa, u o'zining barcha manbalarni-vakt, kuch, e'tibor bir joyga to'plolmaydi va oxir-oqibatda hech bir narsada muvaffaqiyatga erisholmaydi. Ya'ni, bitta ishga diqqatni jamlash va unga to'liq e'tibor qaratish kerak.

Don't put all your eggs in one basket. Bu ibora, qo'rquvni kamaytirish uchun barcha ishga birdaniga harakat qilmaslik kerakligini anglatadi. Ibora ko'pincha odamlarni bir narsaga diqqatni jamlash va ko'p ishni bir vaqtning o'zida qilishdan saqlanishga undash maqsadida ishlatiladi.

2. **Qush inida ko'rganini qiladi.** Ota-ona yoki atrof-muhit bola xulqini shakllantiradi. Bu maqol odamning xulq-atvori, ishlaridagi odatlar, dunyoqarashi va harakatlari, ko'pincha uning oilasi yoki ota-ona tarbiyasidan olingan tajribalarga asoslanishini bildiradi. Ya'ni, bola qanday muhitda ulg'aygan bo'lsa, kattalarga aytganda, aynan o'sha muhit va tarbiya uning kelajakdagi xatti-harakatlariga ta'sir qiladi.

Like father, like son. Ota-ona qanday bo'lsa farzandlar ham shunday bo'ladi. Bolalar ota-onalarining sifatlarini o'zida jamlagan, ulardan o'rnak olgan bo'ladi. "Like father, like son" — bu ibora, ota va o'g'il o'rtasidagi o'xshashlikni ta'kidlaydi, ya'ni o'g'il, odatda, otasining xarakteri, xulqi, qobiliyatlari yoki odatlarini meros qilib oladi. Bu ibora, odatda, biror kishining ota-onasiga o'xshash xususiyatlarini ko'rsatishda ishlatiladi. Misol: "Tom is always working hard, just like his father. Like father, like son." (Tom har doim otasiga o'xshab qattiq ishlaydi. Ota-o'g'il, bir xil.)

3. **Bir kun tuz yegan uyingga qirq kun salom ber.** Ushbu hikmat yordam yoki yaxshilik qilgan odamni hurmat qilish va minnatdorlik bildirish zarurligini anglatadi. Maqolning ma'nosi shuki, biror kishi sizga bir marta yordam bergan yoki yaxshilik qilgan bo'lsa, siz uni uzoq vaqt davomida eslab, unga hurmat ko'rsatishingiz kerak. Bu minnatdorlikni va hurmatni vaqtinchalik emas, balki davomli tarzda bildirish kerakligini ta'kidlaydi.

Don't bite the hand that feeds you. Ingliz tilidagi bu maqol ham yaxshilik qilganlarga yomonlik qilmaslikka chaqiradi, nonko'rlikni qoralaydi. To'g'ridan to'g'ri tarjima qiladigan bo'lsak, "Seni boqqan qo'llarni tishlama".

4. **Domlani aytganini qil qilganini qilma.** Maqolning ma'nosi shuki, biror kishining so'zlari va ta'limotlari, uning amaliy xatti-harakatlari bilan bir xil bo'lmasligi mumkin. Shuningdek, bu maqol, o'rnak sifatida, nafaqat domlaga, balki bizga hikmat uqtirgan har bir yoshi ulug'larga quloq solishni, lekin faqat uning amallariga emas,

balki bergan ta'limotlariga ergashishni targ'ib qiladi. Chunki o'zi o'rgatgan narsasiga amal qilmaydigan insonlar ham bor.

Do as I say, not as I do. Ushbu jumla yuqorida o'zbek maqolidek ma'no anglatib, bir kishining qilgan ishini emas so'zlagan hikmatini bajarishga chorlaydi, albatta, hamma ham aytganiga amal qilavermaydi.

5. **Hechdan ko'ra kech.** Bu o'zbek maqoli har qanday ishni, hatto kech qilingan bo'lsa ham, umuman qilmaslikdan yaxshiroq ekanligini anglatadi. Ya'ni, muayyan bir ishni boshlashda yoki biror maqsadga erishishda vaqtni kechiktirgan bo'lsangiz ham, uni amalga oshirishdan voz kechishdan ko'ra, hech bo'lmaganda kech boshlash, uning ustida ishlash yaxshiroqdir.

Better late than never. Bu ingliz jumlasini yuqoridagi maqolning ayni o'zidir. Ya'ni tarjimasi ham ma'nosi ham bir xil ma'no anglatadi.

6. **Tarvuzi qo'ltig'idan tushmoq.** Ushbu ibora kayfiyati buzilgan, ishi chappasiga ketgan insonning ruhiy holatini majoziy ma'noda namoyon qiladi. Tarvuzning qo'ltig'idan tushishi — bu hayotdagi qiyinchiliklar, o'zgarishlar yoki kutilmagan holatlar natijasida odamning ilgarigi holatidan orqaga chekinishi yoki muvaffaqiyatsiz holatga tushishini ifodalaydi.

Under the weather. "Under the weather" iborasi, odatda, o'zini yomon his qilish yoki kasal bo'lish ma'nosini anglatadi. Bu ibora, asosan, kichik kasalliklar yoki holsizlik holatlarini tasvirlash uchun ishlatiladi. Misol: "I'm feeling a bit under the weather today, so I think I'll stay home and rest." (Bugun o'zimni biroz yomon his qilyapman, shuning uchun uyda qolib dam olaman.) Bundan tashqari, bu ibora ruhan yoki jismonan zaif bo'lgan holatlarni ifodalashda ham qo'llanilishi mumkin.

7. **Narxi osmonda.** Bu ibora biror narsa yoki mahsulotning juda qimmat bo'lishini anglatadi. U asosan bozor iqtisodiyotida yoki kundalik hayotda narxlarning keskin oshishini ifodalashda ishlatiladi. Bu holat, ayniqsa, mahsulot yoki xizmatlarning talab ortib, ta'minot yetishmasligi natijasida narxlar tezda o'sishiga duch kelganda qo'llaniladi.

Cost an arm and a leg. Bu fraza ingliz tilida "juda qimmatga tushmoq" ma'nosini anglatadi. Ushbu ifoda, biror narsa juda yuqori narxda yoki katta mablag' talab qilganida ishlatiladi. Masalan, "That car costs an arm and a leg" deb aytish, "Ushbu mashina juda qimmat" degan ma'noni anglatadi.

8. **Yarasiga tuz sepmoq.** Bu og'zaki ijod namunasi biror kishining og'riqli holatiga qo'shimcha zarba berish, uni yanada og'irlashtirish yoki uning xotirjamligini buzish ma'nosini bildiradi. Ya'ni biror kishiga og'ir vaziyatda undanda yomonroq sharoit yaratish yoki uning azobini ko'paytirishga ishora qilgan holda ishlatiladi.

Add fuel to the fire. Inglizcha ibora bo'lib, "yaxshi narsani yanada yomonlashtirish" yoki "holatni yanada kuchaytirish" degan ma'noni anglatadi. Bu ibora

odatda muammoni yanada murakkablashtirish yoki ziddiyatni kuchaytirish ma'nosida ishlatiladi. Masalan, biror kishi biror mojaro yoki tortishuvni yanada kuchaytirs, "add fuel to the fire" deb aytiladi.

9. Qarisan, qartasan, asl zotingga tortasan. Ushbu xalqimizning yana bir ijodi bo'lib, insonning tabiati yoki o'z xulq-atvori vaqt o'tishi bilan o'zini ko'rsatadi degan ma'noni anglatadi. Maqol hayotdagi o'zgarishlar, tajribalar va vaqt o'tishi bilan insonning ichki tabiati ochilishini ta'kidlaydi. Yoshlik va vaqtinchalik o'zgarishlar insonning haqiqiy tabiatini yashira olmaydi.

A chip off the old block. Bu inglizcha ibora "ota-onasiga o'xshash" yoki "ota-ona xususiyatlarini meros qilib olish" degan ma'noni anglatadi. Bu ibora, asosan, biror insonning xarakteri yoki xulqi, qobiliyati va boshqa xususiyatlari uning ota-onasiga o'xshash bo'lsa ishlatiladi. Masalan, agar bola o'z otasining ishiga yoki xulq-atvoriga juda o'xshasa, "He's a chip off the old block" deyish mumkin.

10. Omadi chopmoq. Bu birikma biror kishining baxti keldi, yoki omadli holatga tushib, muvaffaqiyatga erishdi degan ma'noni anglatadi. "Chopmoq" so'zi bu yerda, muvaffaqiyatning kutilganidan tezroq va oson kelishini ifodalash uchun ishlatiladi. Ibora ko'pincha tasodifiy muvaffaqiyatlar yoki yaxshi imkoniyatlar yuzaga kelganida ishlatiladi. "Omadi chopgan" degan so'zlar odamning kutilmagan darajada baxtli holatga tushishini yoki omadli bo'lishini ifodalaydi.

The ball is in your court. Ushbu ibora "endilikda qaror qabul qilish yoki harakat qilish sizning zimmingizda" degan ma'noni anglatadi. Bu ibora odatda, biror vaziyatda kimdir o'z harakatini qilish uchun mas'uliyatni o'z zimmasiga olganida ishlatiladi. Misol uchun, agar siz biror muammoni hal qilish uchun taklif bergan bo'lsangiz, va endi qaror boshqa kishiga bog'liq bo'lsa, "The ball is in your court" deyishingiz mumkin.

11. Ming marta eshitgandan bir marta ko'rgan yaxshi. Bu hikmat haqiqiy tajriba yoki ko'z bilan ko'rish, eshitgan so'zlardan ko'ra ancha samarali va ishonchli bo'lishini anglatadi. Maqolning ma'nosi shuki, biror narsani faqat eshitish yoki aytish orqali tushunishdan ko'ra, uni o'z ko'zingiz bilan ko'rish yoki o'z tajribangiz orqali bilish afzalroqdir. O'shandagina sizga voqeaning ta'siri kuchli ma'nosi tushunarli bo'ladi. Bundan tashqari, bo'lib o'tgan ish hammaning ham xotirasida bir xil saqlanib qolmaydi yoki barcha ham uni bir xil tushunmaydi, shuning uchun ham voqelikka insonning o'zi guvoh bo'lishi yaxshiroqdir.

A picture is worth a thousand words. "A picture is worth a thousand words" iborasi, so'z bilan ifodalashdan ko'ra ko'proq tasvir yoki su'ratni etkazishi yaxshiroq ekanligini anglatadi. Bu ibora biror holatni yoki voqeani tasvirlash uchun rasm yoki vizual tasvirlarning so'zlardan ko'ra yanada samaraliroq yoki kuchliroq ekanini ta'kidlaydi. Masalan, agar kimdir biror joyni yoki voqeani so'z bilan tasvirlab berishga

urinayotgan bo'lsa, voqeaning su'ratini ko'rgan odamlar buni tushunishi osonroq bo'lishi mumkin.

12. Oz-oz o'rganib dono bo'lur, qatra-qatra yig'ilib daryo bo'lur. Bu o'zbek maqoli kichik va davomli harakatlar, o'rganishlar va sa'y-harakatlar orqali katta natijalarga erishish mumkinligini anglatadi. Ya'ni, inson biror narsani kichik qadamlar bilan, asta-sekin o'rganib borishi va birlashib qolgan har bir harakat ham oxir-oqibat katta yutuqqa olib kelishi mumkin. Ishni bajarishdagi davomiylik, qat'iyat va sabrning muhimligini ham ta'kidlanadi.

A penny saved is a penny earned. Ingliz tilidagi bu idiomada har bir kichik tejashning katta foydaga olib kelinishi ta'kidlanmoqda.

13. O'tgan ishga salovat. Xalqimiz og'zaki ijod xazinalaridan biriga aylangan bu jumla o'tib ketgan ishlarni yaxshilikka yo'yish, sodir bo'gan voqealarni o'ylab g'am chekmaslikka chaqiradi. O'tmishni eslab afsuslanish ham vaqt boy berish, hozirimizni yo'qotib qo'yish demakdir.

Do not cry over spilled milk. Ingliz tilidagi "Don't cry over spilled milk" iborasi, endi o'zgartirib bo'lmaydigan yoki noxush holatdan keyin behuda azob chekmaslikni bildiradi. Misol uchun, "Xato qilding, endi esa ortga qaytib bo'lmaydi, shuning uchun o'tgan narsaga o'ksimang" deb aytish mumkin. **“Let bygones be bygones.”** maqoli ham o'tgan ishga salovat ma'nosini beradi.

14. Usti yaltiroq, ichi qaltiroq. Ushbu o'zbek xalq og'zaki ijodi ingliz tilida quyida keltirilgan misolga qaraganda salbiy ma'no kasb etadi. Ya'ni tashqi ko'rinishdan istalgan bir shaxs yoki buyum bo'lsin, qanchalik go'zallik va hashamatni namoyon etsada, ichida uning aksi bo'lishi mumkin. Tubdan aslida nima borligini bilish mushkul.

You can't judge a book by its cover. Ingliz tilidagi "You can't judge a book by its cover" iborasi, biror kishining tashqi ko'rinishiga qarab uning ichki dunyosini baholash mumkin emasligini bildiradi. Misol uchun, "Uning tashqi ko'rinishi qiziqmasin, ichki dunyosi ancha boy" deb aytish mumkin.

15. Qo'shnining noni shirin. "Qo'shnining tovug'i ko'zga g'oz ko'rinadi", tarzida talqin qilingan bo'lib, bu maqol Eron xalq maqoli hisoblanadi va bu maqolning o'zbekcha muqobillaridan biri "Qo'shnining noni shirin"dir. Ko'pincha bu maqol yosh bolalarga nisbatan qo'shni o'rtog'ining narsasiga havas qilganida ishlatiladi. So'zmaso'z tarjimasi esa "Qo'shnining tovug'i qo'shniga g'oz ko'rinadi"dir.

The grass is always greener on the other side. Bu ibora, boshqa joy yoki boshqa odamning holati yoki imkoniyatlari har doim yaxshiroq ko'rinadi, ammo aslida hammasi bir xil bo'lishi mumkinligini bildiradi. O'zbek tilida ham "boshqa tomondagi o'tlar har doim yashilroq" kabi ibora ishlatiladi. Misol uchun, "Menga ko'pincha o'z

ishimdan norozi bo'lishimni ko'rganlar, boshqalar ishlayotgan joylarni afzal ko'rishadi" deb aytish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ismoilov, I. (2001). O'zbek xalq maqollari. Toshkent: O'zbekiston davlat nashriyoti. "YOSH SHARQSHUNOSLAR ANJUMANI" 2023-YIL 21-DEKABR
2. "The Oxford Dictionary of Idioms"
3. "McGraw-Hill's Dictionary of American Idioms"

О'ZBEK ADABIY TILIDAGI MAÑO KO'CHISH USULLARI: METAFORANING O'ZBEK VA INGLIZ TILIDAGI O'XSHASH VA FARQLI JIHATLARI

Yusupova Muhabbat Alijon qizi

*BuxDPI Tillar fakulteti Xorijiy til va adabiyot
ta'lim yo'nalishi birinchi bosqich talabasi*

Annotatsiya: Bugungi davrda ko'chma maño turlarining mohiyatiga bo'lgan qiziqish ancha ortib bormoqda. Ushbu tezisda o'zbek tilidagi ko'chim usullaridan biri bo'lgan metaforaning vazifasi va uning ingliz tilidagi turlari va ishlatilish o'rinlari haqida batafsil yoritilgan. Shu bilan birga bu usulning ingliz tilidagi o'xshash va farqli jihatlari ham

Kalit so'zlar: *metafora, denotat, omonimik, leksema, ingliz tili, time, money, world, stage, xalq og'zaki ijodi.*

Metafora (gr. *metaphora*-ko'chirish) -nutq mexanizmi, biror leksema denotatining tashqi, zohiriy o'xshashligi asosida boshqa ma'noni ifodalash uchun ishlatilishi. Metafora ma'no hosil bo'lishi uchun quyidagilardan biri sabab bo'ladi:

- 1) Bir so'z boshqa so'zga nisbatan so'zlovchining ifoda maqsadiga ko'proq mos va muvofiq bo'laddi va shuning uchun birinchisi o'rnida ikkinchisi qo'llaniladi;
- 2) Biror denotataning ifodalovchisi bo'lmaydi va ma'lum bir so'z boshqa denotatni ham ifodalash uchun qo'llaniladi.

Demak, birinchi holda ko'chirilayotgan so'z denotatning ikkinchi atamasi bo'lsa, ikkinchi holda birinchi atamasidir. Masalan, *quyi* so'zi anglatadigan ma'noni *etak* so'zi qulayroq va to'laroq ifodalanganligi bois tog'ning quyi tomoniga nisbatan *etak* so'zi ishlatilgan. O'zbek tilida dengizdagi o'ziga xos jo'g'rofiy o'rinning nomi bo'lmaganligi bois *qo'ltiq* so'zi unga nisbatan ham qo'llanadi. Metafora hodisasi asosan, ot turkumi doirasida, qisman fe'lda uchraydi: *Qush uchdi. Samolyot uchdi* qurilmalarining ikkinchisida *uchmoq* fe'li ifodalangan harakatqushning havodagi qanotlarini silkitib qilgan parvozigaga o'xshaydi. Shu boisdan *uchmoq* fe'li ifodalangan keyingi ma'no metaforik ma'no. Metafora hosila ma'no hosil qilishning keng tarqalgan usuli sifatida badiiy uslubning, nutqning eng muhim vositasidan hisoblanadi. Metaforik hosila ma'no nutqda juda ko'p uchraydi. Ammo ularning lisoniylashgani-sememaga aylangani nisbatan kam. *Qanot* (samolyot), *uchmoq, og'iz* (qop) kabi leksemalarning ushbu hosila ma'nosi metaforik semema. Metaforik yo'l bilan hosil bo'lgan semema davrlar o'tishi bilan o'ziga xos atash semalari kasb etishi natijasida bosh sememasidan uzoqlashib, mustaqil holga kelishi, omonimik tabiatga ega bo'lishi

mumkin. Masalan, adabiyotshunoslik termini sifatidagi *fojia* umumiste`mol qo`llanishdagi *fojia* so`zidan ma`niovij jihatdan uzilib, ularning nomemalari omonimik munosabatga ega bo`lgan. Shuningdek, jo`g`rofiy termin bo`lgan qo`ltiq umumiste`moldagi qo`ltiq leksemasining omonimiga aylangan.

Ingliz tilida **metafora** - bu tilshunoslikda biror narsani boshqa biror narsaga o'xshatib ifodalash usulidir. Metafora orqali bir narsa boshqa bir narsaning xususiyatlarini yoki sifatlarini ta'kidlash maqsadida ishlatiladi. Ingliz tilidagi metaforalarning asosiy vazifasi - biror tushunchani yanada aniqroq va tasavvurga yaqin tarzda ifodalashdir. Masalan:

➤ Time is money (*Vaqt - pul*): Bu yerda "vaqt" va "pul" bir-biriga to'g'ridan-to'g'ri bog'lanmagan bo'lsa ham, vaqtning qimmatbaho va cheklangan bo'lishi "pul" ga o'xshash tarzda ta'kidlanadi.

➤ The world is a stage (*Dunyo - sahna*): *Dunyo* va *sahna* o'rtasidagi o'xshashlik orqali hayotning teatrga o'xshashligi va har bir insonning o'z roli borligi ifodalanadi.

O'zbek tilidagi metafora ham aynan shu usulda ishlatiladi, lekin ba'zi madaniy farqlar va o'ziga xosliklar mavjud. O'zbek tilida ko'pincha obrazli va an'anaviy tasvirlar ko'proq uchraydi. O'zbek tilidagi metaforalarda xalq og'zaki ijodi, maqollar va idiomatik ifodalar katta rol o'ynaydi.

Misollar:

❖ Vaqt - oltin (Inglizcha "*Time is money*"ning o'zbekcha analogi): Vaqtning qimmatligini va uni tejash zarurligini ta'kidlaydi.

❖ Ko'zingdan nur ketmasin (Inglizcha "*Keep your spirits up*"ning o'zbekcha analogi): Kishi o'zining ruhiy holatini yoki umidini yuqori tutishiga nisbatan ishlatiladi.

Farqlar:

1. Madaniyat o'xshashliklari va farqlari: Ingliz tilidagi metaforalarda ko'proq iqtisodiy va zamonaviy hayotga aloqador tasvirlar ishlatiladi ("*Time is money*" kabi), O'zbek tilida esa ko'proq tabiat, an'anaviy va maishiy obrazlar keng tarqalgan ("*Yer yuzida yer tishlagan kabi*" yoki "*Yurakdan otish*" kabi).

2. Ijtimoiy kontekst: Ingliz tilidagi metaforalarda ko'pincha jamiyatda yashash tarziga, ishbilarmonlik yoki shaxsiy rivojlanishga urg'u berilgan bo'lsa, o'zbek tilidagi metaforalarda ko'proq oilaviy, diniy yoki xalq an'analari bilan bog'liq tasvirlar mavjud.

Xulosa o`rnida shuni aytish mumkin ,metafora har ikki tilda ham tasvirlashning kuchli va ta'sirli usuli bo'lib, odamlarning fikrlarini yoki his-tuyg'ularini boshqalarga yetkazishda katta yordam beradi. O'zbek tilidagi

metaforalar ko'proq xalq og'zaki ijodiga asoslangan bo'lsa, ingliz tilidagi metaforalar ko'proq zamonaviy va global tushunchalar bilan bog'liq.

Foydalanilgan adabiyotlar:

- [1] Sayfullayeva R.R, Mengliyev B.R, Boqiyeva G.H, Qurbonova M.M, Yunusova Z.Q, Abuzalova M.Q. - Hozirgi O'zbek adabiy tili-, "Toshkent" 2010.
- [2] T.X Xolmatov- O'zbek tilida tasviriy san'at va stilistika, "Fan" 2005.
- [3] John R. Taylor- Cognitive Grammar: A basic introduction, "Oxford University Press", 2002

О`ZBEK ADABIY TILI VA MEYORLARI

Ro`ziyeva Ruxshona Jahongir qizi

Buxoro davlat pedagogika instituti

Tillar fakulteti xorijiy til va adabiyoti

ta'lim yo`nalishi birinchi bosqich talabasi

Annotatsiya: Mazkur tezis o`zbek adabiy tili va uning meyorlarini o`rganishga bag`ishlangan. Ishda o`zbek adabiy tilining tarixi va rivojlanish bosqichlari, meyorlarning asosiy turlari hamda ularning ijtimoiy va madaniy ahamiyati yoritiladi. Shuningdek o`zbek adabiy tilining fonetik, gramatik va leksik meyorlariga amal qilishning ahamiyati va zamonaviy jamiyatdagi meyorlarga rioya qilmaslik muammolari tahlil qilinadi.

**Kalit so`zlar:** Til rivoji, leksik meyor, fonetik meyor, gramatik meyor, o`zbek tili tarixi, til madaniyati, zamonaviy o`zbek tili, o`zbek adabiy tili,

Talaffuz va imlo meyorlari, gap bo`laklari.

O`zbek adabiy tili va meyorlari masalasi O`zbekiston Respublikasida keng o`rganilgan va ko`p yillar davomida rivojlanib kelgan ilmiy sohalardan biri hisoblanadi. O`zbek adabiy tili o`zining tarixiy ildizlariga ega bo`lib, bu tilning shakllanishi va meyorlari asosida xalq og`zaki ijodi va yozma adabiyot namunalari yotadi. Bu meyorlar tilni aniqlash, saqlash va tartibga solishda muhim rol o`ynaydi. O`zbek tili qadimiy turkiy tillar oilasiga kiradi va uning shakllanishi O`rta Osiyoning uzoq tarixiga borib taqaladi. O`zbek adabiy tili Alisher Navoiy davridan boshlab shakllangan. Ayniqsa, Navoiy asarlarida adabiy tilning aniq meyorlari va qoidalari belgilangan. Shu tariqa, o`zbek adabiy tili tarixiy jarayonlar orqali boyib, hozirgi zamonaviy ko`rinishini oldi.

Adabiy meyorlarning ahamiyati

adabiy til meyorlari tilni umumiy, tushunarli va ifodali qilish uchun zarur. Bu meyorlar quyidagi asosiy jihatlarni o`z ichiga oladi:

- Leksik meyor: so`z boyligini ifoda qilish uchun muayyan so`z va iboralar tanlanadi
- Grammatik meyor: tilda to`g`ri gap tuzish, otlar, fellar va boshqa so`z turkumlari bo`yicha meyoriy qoidalar mavjud
- Imlo va talaffuz meyorlari: to`g`ri yozish va talaffuz meyorlari
- Stilistik meyor: turli matn janrlari va uslublariga qarab o`zgaradi

Adabiy til meyorlarining rivojlanishi

O'zbek tilining meyorlarini shakllantirishda asosiy omil - bu ilmiy tadqiqotlar va davlat siyosati hisoblanadi. Jumladan, til islohoti, lug'atlar nashri tilni rivojlantirish uchun maxsus qonunlar qabul qilinishi, til meyorlari va qoidalarining ommalashishiga yordam beradi. Shu bilan birga, yosh avlodni ona tilida ta'lim olish va uning qoidalarini puxta bilishga rag'batlantirish ham muhimdir. XXI asrda O'zbekistonda globalizm axborot texnologiyalari va ijtimoiy tarmoqlar orqali yangi so'zlar va uslublar tilga kirib kelyapti. Bu esa meyorlarni qayta ko'rib chiqishni talab qiladi. Shu bilan birga, o'zbek adabiy tilida milliy va an'anaviy qadriyatlarni saqlab qolish maqsadida yangicha yo'nalishlarda ishlar olib borilmoqda.

O'zbek tili meyorlari bugungi kunda ham xalq orasida ommalashgan bo'lib o'ziga xos xususiyatlarga ega, bu meyorlarning saqlanishi rivojlanishi va kelajak avlodga yetib borishi milliy madaniyat va an'analarni boyitishga xizmat qiladi.

Gap bo'laklari:

Gap bo'laklari gapning tarkibiy qismlari bo'lib, ualr gapda muayyan vazifalarni bajaradi. Gapning asosiy bo'laklari va yordamchi bo'laklari va yordamchi bo'laklari tilda mantiqan to'g'ri fikr ifodalash uchun zarur. Gap bo'laklari tilda fikrni ifodalashning asosiy unsurlari hisoblanadi. O'zbek tilida gapning gramatik tuzilishi va uning bo'laklari muhim o'rin tutadi. Gap bo'laklari o'zaro gramatik bog'lanishda bo'lib, bu bog'lanishlar gapning mantiqiy va aniq ifodalanishini ta'minlaydi. Ega va kesim o'rtasidagi uyg'unlik, shuningdek, to'ldiruvchi, aniqlovchi va holning boshqa bo'laklar bilan bog'lanishi gap mazmunini to'liq ifodalashga yordam beradi.

- Ega - gapda harakatni bajaruvchi yoki hodisani ifodalovchi bo'lak hisoblanadi. U odatda kim? Yoki nima? Savollariga javob beradi. Masalan: O'quvchi kitob o'qiyapti. Ushbu gapda "o'quvchi" so'zi ega hisoblanadi.

- Kesim - gapda harakat yoki hodisani ifodalovchi bo'lakdir. Kesim, odatda, ega bilan uyg'unlashib keladi va nima qilyapti? Yoki nima bo'ldi? Kabi savollarga javob beradi. Yuqoridagi gapda "o'qiyapti" so'zi kesim hisoblanadi.

- Aniqlovchi - aniqlovchi gapdagi boshqa so'zga aniqlik kiritadi. U gapda qanday? qaysi? qanaqa? So'roqlariga javob bo'ladi. Masalan: yangi kitob "yangi"-aniqlovchi

- To'ldiruvchi- to'ldiruvchi gapda ega yoki kesim tomonidan talab qilinadigan qo'shimcha malumotni ifodalaydi. Masalan: "O'quvchi kitobni o'qiyapti" gapida "kitob" so'zi to'ldiruvchi vazifasida kelyapti.

- Hol - hol gapda harakatning qanday, qayerda, qachon yoki qay tarzda bajarilganini ifodalaydi. Masalan: "O'quvchi kechasi kitob o'qiyapti" gapida "kechasi" hol hisoblanadi.

Ingliz tilida**1.subject (ega):**

Gapning kim yoki nima haqida ekanligini bildiradi. Odatda odam yoki narsa nomi, masalan, “He,” “She,” yoki “The book.”

2. Verb (Kesim):

Gapning asosiy harakati yoki holatini bildiradi. Misol: “is,” “runs,” “eats.”

3. Object (to‘ldiruvchi):

Harakat kimga yoki nimaga qaratilganini bildiradi. Bu to‘ldiruvchi gapda faoliyatni qabul qiluvchi sifatida qatnashadi. Masalan, “the ball” (“He kicks the ball”).

4. Objective (aniqlovchi):

Gap ma’nosini aniqlovchi yoki kengaytiruvchi qism. Bu qism holat yoki boshqa ma’lumotni bildirishi mumkin. Masalan, “tired” (“She seems tired”).

5. Adverb (hol):

Gapga qo‘shimcha ma’lumot qo‘shuvchi qism. Bu joy, vaqt, sabab va boshqa holatlar haqida tushuncha beradi. Masalan, “yesterday,” “in the park”.

***Umumiy gap tuzilmasi:**

Subject + Verb + Object + Objective + Adverb = He (Subject) plays (Verb) football (Object) every day (Adverb).

Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, o‘zbek tilining davlat tili sifatida belgilanishi O‘zbekiston xalqining milliy o‘zligini tiklash, madaniy qadriyatlarni saqlash va mustahkamlash yo‘lida katta ahamiyatga ega bo‘ldi. Hozirda O‘zbekistonda o‘zbek tilini rivojlantirish, davlat tili me‘yorlarini saqlash va ommalashtirish maqsadida ko‘plab dasturlar amalga oshirilmoqda. Shu sababli, 21-oktabr kuni "O‘zbek tili bayrami kuni" sifatida nishonlanadi.

O‘zbek tiliga davlat tili maqomining berilishi milliy o‘zlik, madaniy meros va tilni saqlashda hal qiluvchi rol o‘ynagan va bugungi kunda ham til rivoji va ommalashuvida muhim omil bo‘lib qolmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mamatov.I. “O‘zbek tili gramatikasi” Toshkent 2018
- 2.Xudoyberdiyev,S. “Hozirgi o‘zbek adabiy tili” Toshkent: universitet nashriyoti 2020
2. Karimov,A. “O‘zbek tilining gramatik tuzilishi”. Ozbekiston milliy ensiklopediyasi, 2019
3. Rashidov,U. “O‘zbek tilining fonetikasi va morfologiyasi” Toshkent: O‘qituvchi nashriyoti, 2017.

BOSHLANG'ICH TA'LIM JARAYONIDA INGLIZ TILINI O'QITISHNING AHAMIYATI

Xasanboyeva Vasila Akmal qizi

Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti

Ingliz tili va adabiyoti yo'nalishi talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilari ta'lim jarayonida chet tillarini o'qitishning muhimligi, bu borada pedagogga qo'yiladigan talablar, erta yoshdagi o'quvchilarning til o'rganish jarayonidagi xususiyatlari, bu asosida bolalarni ingliz tiliga qiziqtirishning, shuningdek, ularni tanqidiy fikrlashga hamda intellektual salohiyatini oshirishga qaratilgan samarali metodlar haqida fikr yuritiladi.

Kalit so'zlar: Boshlang'ich ta'lim, optimal o'rganish davri, pedagogik ko'nikmalar, interaktiv darslar, zamonaviy texnologiyalar, individual yondashuv, motivatsiya, maqsad belgilash, o'qitish usullari, dars jarayoni, tanqidiy fikrlash, tasvirlash ko'nikmalari, mantiqiy fikrlash, savol berish ko'nikmalari.

THE IMPORTANCE OF TEACHING ENGLISH IN PRIMARY EDUCATION.

Annotation: In this article, the importance of teaching foreign languages in the educational process of elementary school students, the requirements for the pedagogue in this regard, the characteristics of early-age students in the language learning process, based on this, the interest of children in the English language, as well as their effective methods aimed at increasing critical thinking and intellectual potential are discussed.

Key words: Primary education, optimal learning period, pedagogical skills, interactive lessons, modern technologies, individual approach, motivation, goal setting, teaching methods, teaching process, critical thinking, imaging skills, logical thinking, questioning skills.

ВАЖНОСТЬ ПРЕПОДАВАНИЯ АНГЛИЙСКОГО ЯЗЫКА В НАЧАЛЬНОЙ ШКОЛЕ.

Аннотация: В данной статье рассматривается значение обучения иностранным языкам в образовательном процессе учащихся младших классов, требования к педагогу в этой связи, особенности раннего возраста в процессе изучения языка, исходя из этого, интерес детей на английском языке, а также их эффективные методы, направленные на повышение критического мышления и интеллектуального потенциала.

Ключевые слова: Начальное образование, оптимальный период обучения, педагогические навыки, интерактивные уроки, современные технологии, индивидуальный подход, мотивация, целеполагание, методы обучения, учебный процесс, критическое мышление, навыки визуализации, логическое мышление, умение задавать вопросы.

[1] Ta'lim sifatini oshirish, xorijiy tillarni o'qitishni rivojlantirish, o'quvchi yoshlarning xorijiy tillarni o'rganish bo'yicha ko'nikma va malakalarini oshirish davlat siyosatining ta'lim sohasidagi ustuvor vazifalardan biriga aylandi. Bolalarimiz maktabdan ona tili hamda chet tillarini yaxshi o'zlashtirishi va kompyuterda ishlash jarayonida malakaga ega bo'lishlari kerak. Darhaqiqat, hozirgi zamon jadal rivojlanib borayotgan intellektual hayotda chet tillarini, ayniqsa, ingliz tilidan bilimga va ma'lum darajaga ega bo'lish ahamiyatli ekanligini ko'rsatib ulgurdi. Bu borada yosh avlodni boshlang'ich ta'lim jarayonidan bilimli hamda salohiyatli tarbiyalash maqsadida ingliz tilidan ko'nikma va malakalarni shakllantirish kelajakda mamlakatimiz rivojiga hissa qo'shuvchi mahoratli kadr tayyorlashning muhim omilidir. Bugungi kunda har bir o'sib borayotgan avlod xorijiy tillarni bilishi zamon talabidir.

Boshlang'ich ta'lim jarayonida o'quvchilarning chet tili ko'nikmalarini oshirish boshlang'ich ta'lim sohasida muhim ahamiyat kasb etadi. [2] Mutahassislar yangi tilni erta yoshda o'rganish yaxshiroq ekanligini tasdiqlovchi bir nechta nazariyalarni ko'rsatadilar. Agar u optimal muddatdan keyin qo'lga kiritilsa, tilni o'rganish yanada qiyinlashadi. Optimal davr - 2-14 yosh. Bu 14 yoshdan kattalar yoki kattalar ingliz tilini o'rganish jarayonida ko'proq qiyinchiliklarga duch kelishlarini anglatadi. Bu esa ta'lim jarayonida o'quvchilarga ingliz tili fanini boshlang'ich sinfdan o'qitish dolzarbligini ko'rsatadi.

Ta'limning ilk bosqichida o'quvchilarga ingliz tilini samarali o'qitish maqsadida o'qituvchilarga qator talablar qo'yiladi. [3] O'qituvchilar ingliz tilini yaxshi bilishi, qo'shimcha o'quv yo'nalishlarida yaxshi malakaga ega bo'lishi va o'quvchilarning ingliz tilida tanqidiy, intellektual va savodxonlik ko'nikmalarini rivojlantira olishi kerak. Pedagog ingliz tili va pedagogika sohasida oliy ma'lumotga ega bo'lishi lozim. Shuningdek, ingliz tili o'qituvchisi sifatida TESOL va CELTA kabilar bilan sertifikatlangan bo'lishi kerak. Bu o'rinda fan o'qituvchisining pedagogik ko'nikmalarga ega bo'lishi muhim omil hisoblanadi, ya'ni o'yinlar orqali o'qitish, kommunikativ metod singari usullarni qo'llay olishi zarur. Pedagogdan har bir darsga kreativlik bilan yondashishi, dars jarayonini interaktiv va qiziqarli tarzda o'tkazishi talab etiladi. Ingliz tili darsi mobaynida zamonaviy texnologiyalardan, internet hamda multimedia vositalaridan, masalan, video darslar o'yinlardan samarali foydalanishi kerak. O'qituvchiga qo'yiladigan yana bir muhim talab, ta'lim sohasida bo'layotgan o'zgarishlar, islohotlar va umuman, yangiliklardan hamisha xabardor bolishi zarur.

Boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun mo'ljallangan ingliz tili fani hamda undagi mashg'ulotlar bolalarda o'rganilayotgan tilga nisbatan qiziqish uyg'otishi va ularni yangi notanish tilda ma'lum daraja, bilimga ega bo'lishga chorlashi lozim. O'qituvchilar dars jarayonini tashkillashtirishda va o'tkazishda har bir o'quvchining individual xususiyatlarini inobatga olib, turli darajadagi vazifalar va faoliyatlar tayyorlab kelishlari kerak. Bu esa har bir o'quvchining o'z sur'atida o'rganishini ta'minlaydi. O'quvchilar bilan doimiy muloqot qilish, ularning fikrlarini eshitish orqali o'quvchilarning o'ziga xos qiziqishlari va ehtiyojlariga mos ravishda maqsadlar belgilashlari ahamiyatlidir. Maqsad belgilash natijasida o'quvchilarning motivatsiyasini oshirish mumkin. Bu jarayon esa bir nechta samarali metodlarni o'z ichiga oladi. Ta'kidlab o'tish joizki, shu o'rinda bolaning individual xususiyatlari, qiziqishlarini ham inobatga olish zarur.

Boshlang'ich sinf dars jarayonida o'quvchilarning umumiy qiziqishlaridan kelib chiqilsa, ularning ingliz tiliga qiziqishini oshirishda o'yinlar alohida o'rin egallaydi. Ular nafaqat o'quvchilarning fanga qiziqtiradigan vosita balki, to'g'ri tanlangan va samarali tashkillashtirilgan o'yin ularda bir qancha til ko'nikmalarini rivojlantirishga ham xizmat qiladi. Quyida shunday o'yinlarga misollar keltiraman: "Mening qahramonim" loyihasi. Bunda o'quvchilar o'zlariga yoqadigan shaxs yoki qahramonni tanlaydilar masalan kitobdan biror qahramon, tarixiy shaxs yoki o'zlariga yaqin kishilar bo'lishi mumkin. Bolalarga uyga vazifa tarzda tanlangan shaxs haqida qisqacha ingliz tilida matn yozib kelish topshiriladi. Keying darsda esa ular tayyorlab kelgan matnlari asosida qahramonning hayoti, yutuqlari va qanday qilib ular boshqalarga yordam berganini muhokama qilishadi. Ushbu mashg'ulotda qahramonning xarakteri va qilgan ishlarini gapirib tahlil qilish o'quvchilarning tanqidiy fikrlashni rivojlantiradi. Ingliz tilida "tabu" nomli mashhur o'yini mavjud. O'yinda guruhdagi bir o'quvchi berilgan so'zni tasvirlab berishi talab etiladi, lekin u so'zga yaqin bo'lgan boshqa so'zlarni ishlata olmaydi ya'ni bunday so'zlar "tabu" hisoblanadi. Qolgan bolalar berilgan so'zni topishlari kerak. Ushbu o'yin fikrlarni tez ifoda etish hamda so'z boyligini oshirish bilan birga o'quvchilarning tasvirlash ko'nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi. 20 savol. Bunda bir o'quvchi biror shaxs, buyum yoki joyni tanlaydi va boshqa o'yinchilar uni aniqlash uchun 20 ta qisqa savollar berishadi. Ishtirokchi faqat "ha" yoki "yo'q" deya javob beradi. O'quvchilar bergan savollari orqali tanlangan ob'ektni topishlari kerak. Bu mashg'ulot mantiqiy fikrlashni va savol berish ko'nikmalarini rivojlantiradi.

O'quvchilarning kelajakdagi muvaffaqiyatlari uchun boshlang'ich ta'limda ingliz tilini o'qitish ularga muhim poydevor bo'ladi. Bolalarning til ko'nikmalarini rivojlantirishda o'yinlar hamda interaktiv metodlardan foydalangan hoda darsni tashkillashtirish muhimdir, ushbu usullar ta'lim jarayonini samarali va qiziq bo'lishini ta'minlaydi. Har bir o'quvchining o'ziga xos individual xususiyatini hisobga olish,

ularning o'z sur'atida o'rganishiga zamin yaratadi. Shu bilan birga, multimedia vositalari va zamonaviy texnologiyalardan foydalanish ta'lim o'qitish jarayonini yanada jozibador qiladi. O'quvchilarda mantiqiy va tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirish esa, o'z navbatida, ularning muvaffaqiyatlari uchun muhim ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. https://uza.uz/oz/posts/yangi-ozbekistonda-chet-tilini-organishning-yangi-imkoniyatlari_475420
2. <https://cyberleninka.ru/article/n/teaching-english-in-primary-schools-benefits-and-challenges/viewer>
3. Sue Garton, Fiona Copland. (2019). The Routledge Handbook of Teaching English for young learners. New York, NY: pp 564
4. Chirchiq davlat pedagogika universiteti "Boshlang'ich sinflarda chet til o'qitish metodikasi" o'quv dasturi (2024).
5. Internet manbalari.

РОЛЬ НАШИХ ВЕЛИКИХ ПОЛКОВОДЦЕВ В ВОСПИТАНИИ МОЛОДЕЖИ В ДУХЕ ВОЕННОГО ПАТРИОТИЗМА

Остонов Зафар Замонович

*Бухоро Давлат Педагогика институти харбий талии
факультети услубий тайёргарлик сикли уқитувчиси.*

Аннотация: В этой статье исследуется решающая роль, которую играют наши великие военачальники и лидеры в воспитании молодежи, в частности, в привитии ценностей военного патриотизма. На основе исторического анализа и обзора методов обучения в этом исследовании подчеркивается влияние военных деятелей на формирование национальной идентичности и гордости. В исследовании также рассматривается, как их руководство прививает чувство долга и ответственности перед страной и как эти ценности могут быть переданы современной молодежи.

Ключевые слова: Военный патриотизм, образование, молодежь, лидерство, военачальники, национальная гордость, развитие молодежи, патриотическое воспитание, исторические личности, национальная идентичность.

Патриотизм означает любовь и преданность земле, служение стране, это это означает отдать всю свою жизнь и свой потенциал, а также свою душу, если это необходимо. Патриотизм-это универсальные чувства, присущие всем народам, нациям и народам, и одна из духовных ценностей, отполированная веками. Историческая перспектива с точки зрения, патриотизм – это свойство людей в процессе их социально-экономического развития. За судьбу Родины, целостность и независимость территории, на которой живут сами народы комплекс чувств, связанных с его борьбой. С прошлым и настоящим Родины гордиться, заботиться и заботиться о своем будущем, отстаивать свои интересы.

Чувство патриотизма обусловлено глубоким знанием народом своей истории и материальное и духовное наследие, созданное великими предками беречь, как зеницу ока, и передавать будущим поколениям, традиции предков, живопись изучая роды и роды, наследие, продолжая ту часть, которая стала его ценностью особенно в вопросах стабильности, независимости, будущего нашего государства искренне чувствовать свое величие, стремиться построить такое будущее это отражается в сотнях качеств, таких как помощь. В конце концов, во все времена каждый судьба какой нации определяется воспитанием молодежи, которая является ее будущим. Джадидские мыслители о

том, насколько важна роль воспитания в жизни человека, общества и обратили на это внимание.

В каждом обществе образование молодежи является одним из важнейших элементов обеспечения стабильности и процветания нации. Военный патриотизм, неотъемлемый компонент национальной гордости, часто культивируется на примере уважаемых военачальников, известных своим мужеством, лидерством и непоколебимой преданностью своей стране. Капитаны и военные деятели, повлиявшие на историю нашей страны, служат мощными символами патриотизма, дисциплины и преданности делу. Их влияние на молодое поколение неоценимо в плане пропаганды национальных ценностей и воспитания глубокого чувства долга перед страной.

Цель этой статьи - исследовать роль этих великих полководцев в воспитании военного патриотизма у молодежи, проанализировав их вклад как в историческом плане, так и в контексте современного образования. В нем также будут рассмотрены методы, используемые военными деятелями для вдохновения и обучения молодежи, а также способы применения этих методов сегодня.

Педагог воспитывает учащихся-молодежь в верности своему народу, родине, стране иметь в них здоровую силу, мышление, веру и чистую совесть

формировать, жить во благо нации, воспитывать ответственность перед Родиной, к формированию всестороннего здорового образа жизни должен научить. способствовать развитию страны, повышению престижа нации, приносить пользу, работать с самоотверженностью и честностью, честь и интересы народа только когда вы пытаетесь найти разные способы и средства для размышлений, стимулирования. Воспитывать чувство патриотизма у учащихся, чтобы они были гуманными создаются широкие возможности для формирования. Патриотизм в учениках чувство формирование для всех новых педагогических технологий использование видений, поиск и создание новых форм, прежде всего, учить учащихся самостоятельно мыслить, уважать и ценить Родину необходимо. . Ведь красота Родины-такое прекрасное понятие, что она есть у каждого землевладельца может вызвать в душе гордость и гордость.

Обеспечение справедливости и мира между людьми также является патриотическим, это гуманно. В свою очередь, эти процессы способствуют духовно-просветительской нравственности людей. Условия жизни. Воспитания молодежи в духе гуманизма в настоящее время важный инструмент. Нарушение гуманных норм и обязанностей взаимно отрицательно влияет на справедливость. Это нарушает духовное воспитание.

Роль великих полководцев в воспитании молодежи в духе военного патриотизма значительна, поскольку эти лидеры воплощают такие ценности, как дисциплина, самопожертвование, мужество и любовь к своей стране. Своими действиями и лидерством они вдохновляют будущие поколения на соблюдение этих принципов. Вот несколько ключевых способов, с помощью которых великие военачальники вносят свой вклад в воспитание молодежи:

Образцы лидерства для подражания : Великие полководцы подают пример, демонстрируя такие качества, как храбрость, самодисциплина и стратегическое мышление. Их преданность своей стране побуждает молодых людей развивать эти качества, воспитывая чувство ответственности и долга перед своей страной.

Воспитание патриотизма : Жертвы, на которые идут военачальники, часто служат напоминанием молодежи о важности патриотизма. Подчеркивая преданность командиров делу защиты своей страны, молодые люди узнают о ценности верности и национальной гордости, которые составляют основу военного патриотизма.

Воспитание чувства долга : Военные капитаны вдохновляют молодых людей служить своей стране. Их руководство во время войны или в мирное время демонстрирует важность вклада в общее благосостояние нации, побуждая молодежь воспринимать службу как благородный путь.

Воспитание дисциплины и силы : Строгие тренировки и стойкость духа, проявляемые великими капитанами, также являются ключевыми уроками для молодежи. Эти капитаны часто подчеркивают важность упорного труда, самопожертвования и преодоления невзгод, что помогает молодым людям закалять характер и жизнестойкость как в военной, так и в гражданской жизни.

Укрепление единства и братства : Военные капитаны, возглавляя различные команды, часто подчеркивают важность единства, духа товарищества и сотрудничества. Эти качества воспитывают у молодежи чувство коллективной идентичности и ответственности, укрепляя солидарность и общие ценности в служении своей нации.

Культурное наследие: Деяния и наследие великих военачальников часто увековечиваются в национальной истории, рассказах и образовательных материалах. Изучая этих лидеров, молодые люди приобщаются к наследию своей страны и осознают важность сохранения этого наследия для будущих поколений.

Таким образом, великие военачальники играют решающую роль в формировании военного патриотизма молодежи, подавая убедительные примеры, прививая дисциплину, укрепляя единство и воспитывая глубокое чувство любви и долга по отношению к своей стране. Их влияние распространяется не только на поле боя, но и на сердца и умы будущих лидеров.

Полученные данные свидетельствуют о том, что военные капитаны, являясь символами национальной гордости, оказывают длительное влияние на воспитание молодежи. Их лидерские качества — дисциплина, стойкость и самопожертвование — являются важнейшими составляющими военного патриотизма, которые жизненно важны для национальной идентичности. Однако дискуссия также освещает проблемы, с которыми сталкивается современное образование, где влияние военных деятелей иногда затмевается сложностями глобальной взаимосвязанности и современными технологиями.

